

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**IBRAGIMOV SAID SANJAROVICH**

**JIGAR METASTATIK O‘SMALARINI  
JARROXLIK VA KOMBINATSIYALASHGAN  
USULDA DAVOLASH**

**MONOGRAFIYA**

**KAFOLAT TAFAKKUR  
ANDIJON -2024**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
ANJIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»

Ekspert kengashi raisi  
f.f.d. professor

M.M.Madazimov


2024 y.



MONOGRAFIYA

IBRAGIMOV SAID SANJAROVICH

JIGAR METASTATIK O'SMALARINI JARROXLIK VA  
KOMBINATSIYALASHGAN USULDA DAVOLASH



Andijon -2024

**UDK: 616.34-006-6.072.1**

**KBK: 55.6**

**I15**

**MUALLIF:**

**IBRAGIMOV S.S.**

- t.f.d. kaf.prof., ADTI Tibbiy radiologiya kafedrası

**TAQRIZCHILAR:**

**RAIMOV G.N.**

- Farg`ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti fakultativ va gospital jarroxlik kafedrası professori t.f.d.

**XASANOV D.SH.**

- ADTI onkologiya kafedrası t.f.n., dosent

Klinik onkologiya sohasidagi yutuqlar va yangi tibbiy texnologiyalarning joriy etilishiga qaramay, O‘zbekistonda jigar metastatik o‘smalarini jarroxlik va kombinatsiyalashgan usulda davolash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Diagnostika va davolashda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Respublikada ushbu muammoga bag‘ishlangan birinchi kitobdir. U mualliflarning ancha mustahkam klinik materiallariga asoslangan. Natijada, monografiyada keltirilgan ma‘lumotlar statistik ishonchlilikka ega va mualliflarga zamonaviy onkologik koloproktologiya-jigar metastatik o‘smalarini jarroxlik va kimyoterapiya usulda davolashda asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Xususan, monografiya kundalik amaliyotida ushbu muammolarga duch kelgan barcha onkologlar uchun qo‘llanma bo‘ladi.

*Jigar metastatik o‘smalarini jarroxlik va kombinatsiyalashgan usulda davolash: Monografiya / prof.Ibragimov S.S. – Andijon, “KAFOLAT TAFAKKUR” nashriyoti, 140 bet.*

Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2024-yil “29-fevral” №6i-11/m son bayon bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya qilingan.

**ADTI ekspert kengash kotibi,**  
t.f.n.:

**Ten D.O.**

**ISBN: 978-9910-711-01-5**



**9676**

© IBRAGIMOV S.S., 2024-yil

© KAFOLAT TAFAKKUR, 2024-yil

## MUNDARIJA

<b>Shartli belgilar ro'yxati</b>	<b>7</b>
<b>KIRISH</b>	<b>8</b>
<b>1-BOB. Adabiyotlar sharhi</b>	<b>12</b>
1.1. Epidemiologiya	12
1.2. Kolorektal saratonda jigar shikastlanishining tasnifi va prognostik omillari	13
1.3. Jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda kimyoterapiya va jigar rezeksiyasining roli	15
1.4. Jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning roli	17
1.5. Jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda intervension texnologiyalar va mahalliy destruksiya usullaridan foydalangan holda agressiv jarrohlikning roli	20
1.6. Jigardan tashqari metastaz holatlari uchun taktika	27
1.7. Metastatik yo'g'on ichak o'smasi bilan og'rigan bemorlarni davolashda tizimli varegionaradyuvant kimyoterapiya. Operatsiyadan keyingi kimyoterapiyada oksaliplatinni qo'llashning maqsadga muvofiqligi	29
<b>2-BOB. Materiallar va usullar</b>	<b>40</b>
2.1. Klinik material xususiyatlari	40
2.2. Intrahepatik tarqalish	43
2.3. Jigardan tashqari o'simta tarqalishi holatida ko'riladigan taktika	47
2.4. Jigar rezeksiyasi paytida qon yo'qotish va uning oldini olish choralari	48
2.5. Portal venaning o'ng shoxchasi embolizatsiya qilinganidan keyin jigar rezeksiyasi	53
2.6. Jigar rezeksiyasidan keyingi adyuvant kimyoterapiya	56
2.7. Materiallarni qayta ishlashda qo'llaniladigan metodik va matematik usullar	60
2.8. Xulosa	61
<b>3-BOB. Jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan usul bilan davolashning bevosita natijalari</b>	<b>63</b>
Jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarning davolash turiga va operatsiyadan keyingi kimyoterapiya rejimiga qarab xususiyatlari	63
3.2. Operatsiya hajmiva operatsiyadan oldingi kimyoterapiya mavjudligiga bog'liq bo'ladigan asoratlari	67
3.3. Jigar rezeksiyasidan keyingi asoratlardagi aralashuvlar	71

3.4. Kimyoterapiyaning toksikligi	73
3.5. Xulosa	76
<b>4-BOB. Uzoq muddatli natijalar</b>	<b>77</b>
4.1. Umumiy guruhdagi bemorlarning yashab ketishi	77
4.2. Davolanish turiga ko‘ra uzoq muddatli natijalar	79
4.3. Sinxron metastazlarda hamda metastazlar soniga ko‘rabemorlarning yashab ketishi	81
4.4. Solitar metastazli bemorlar guruhidagi yashab qolish darajasi	82
4.5. Yagona metastazli bemorlar guruhida omon qolish darajasi	86
4.6. Ko‘p metastazli bemorlar guruhida omon qolish darajasi	90
4.7. Qon yo‘qotish hajmiga ko‘ra uzoq muddatli natijalar	93
4.8. Rekonsrtuktiv operatsiyalarda jarrohlik va kombinatsiyalangan davolanishning uzoq muddatli natijalari (palliativ, jigardan tashqari metastazlar bilan, mahalliy destruksiya usullaridan foydalangan holda)	94
4.9. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning yashab ketishga ta'siri	96
4.10 Klinik misol	98
4.11 Xulosa	102
<b>Yakun</b>	<b>105</b>
<b>Xulosa</b>	<b>126</b>
<b>Adabiyotlar ro‘yxati</b>	<b>128</b>

## **SHARTLI BELGILAR RO‘YXATI**

**AG** – angiografiya

**NAM** – neytrofillarning absolyut miqdori

**PV** – portal vena

**GGE** – gemigepatektomiya

**II** – ishonchli interval

**KRS** – kolorektal saraton

**MRT** – magnit – rezonans tomografiya

**NX** - nisbiy xavf

**PKT** – polikimyoterapiya

**RKT** – rentgen-kompyuter tomografiyasi

**RChA** – radiochastotali ablatsiya

**UTKT** – ultratovush kompyuter tomografiyasi

**PVE** – portal vena embolizatsiyasi

**PKV** – pastki kovak vena

**O‘ATE** - o‘pka arteriyasi tromboemboliyasi

**5FU/LV** –5-ftoruratsil/leykovorin sxemasi bo‘yicha kimyoterapiya

**FOLFOX** – oksaliptatin, leykovorin, 5-ftoruratsil sxemasi bo‘yicha kimyoterapiya

**FOLFIR** – irinotekan, leykovorin, 5-ftoruratsil sxemasi bo‘yicha kimyoterapiya

**FRL (V)** future liver (volume) - qolgan jigar parenximasi hajmi

**FUDR** – 5 ftordezoksiuridin

## **KIRISH**

### **Mavzuning dolzarbligi**

Yo'g'on ichak saratoni eng keng tarqalgan xavfli o'smalardan biridir -.har yili dunyoda 1 milliongacha, Rossiyada esa 50 mingdan ortiq odam yo'g'on ichak saratoniga chalinadi. Shu bilan birga, ushbu patologiyadan kasallanish va o'lim ko'rsatkichlari ortib bormoqda. Ushbu kasallikning dastlabki bosqichlarida aniqlanish darajasini tahlil qilishda olinadigan xulosalar ham achinarlidir: mazkur lokalizatsiya o'smasining atigi 19 foizi I-2 stadiyalarda, 41 foizi III stadiyada tashxisi aniqlanishiga erishiladi; shunga ko'ra, Rossiyada yo'g'on ichak saratoni bilan yangi tashxis qo'yilgan har uchinchi bemorda, birinchi navbatda, jigarda uzoq metastazlar aniqlanadi (xorijiy mualliflarning fikriga ko'ra, birlamchi yo'g'on ichak o'smasining 20-50 foizida jigarda metastazlar mavjudligida tashxis qo'yilgan). Yo'g'on ichak o'smalarini erta aniqlash usullari yaxshi ma'lum bo'lishiga qaramay, profilaktik tekshiruvlar paytida 1,5% dan ko'p bo'lmagan holatlar aniqlanadi; aksariyat hollarda kasallik yo'g'on ichak saratoni belgilari mavjud bo'lganda va ko'pincha murakkab formalar ko'rinishida (o'tkir ichak tutilishi, qon ketish, kovak a'zolar perforatsiyasi, peritonit va boshqalar) tashxis qilinadi.

Bundan tashqari, yo'g'on ichak saratoni uchun potensial radikal davolangan bemorlarning 30-55% gacha qismi kasallikning jigar metastazlari ko'rinishida rivojlanishi xavfi ostida bo'lishadi.

Shunday qilib, metastatik yo'g'on ichak o'smasini tashxislash va davolash muammosi onkologik amaliyotda katta ahamiyatga ega bo'ldi. 25 foiz hollarda jigar o'simta tarqalishining yagona ko'rinishi bo'lib, bunday holda bemorlar jarrohlik usuli bilan davolanishga majbur bo'lishlari mumkin.

Zamonaviy diagnostika usullarining (UTT, KT, MRT, MSKT, PET) klinik amaliyotga keng joriy etilishi jigardagi mayda metastazlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, davolash natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Bundan tashqari, jigarga jarrohlik aralashuvlar texnikasi takomillashtirildi, anesteziologiya va reanimatologiya rivojlanmoqda, bu jigar rezeksiyasida operatsiyadan keyingi asoratlar va o'lim xavfini kamaytiradi - shu orqali jigar metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik amaliyoti orqali davolash uchun ko'rsatmalar kengaytiriladi.

Keng tarqalgan yo'g'on ichak saratoni kimyoterapiyasida sezilarli yutuqlarga erishildi, zamonaviy preparatlar o'rtacha omon qolish muddatini 20 oydan ortiqqa uzaytirdi, shu bilan birga tadqiqot ma'lumotlari yuqori samaradorlik va maqbul toksiklik profili tufayli birinchi qatorda oksaliptatin yoki irinotekandan foydalaniladigan sxemalarning ustunligini ishonchli tarzda namoyon qiladi. Maqsadli preparatlar, ayniqsa, kimyoterapiya bilan uyg'unlikda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Agar terapiyaning birinchi qatori samara bermasa, faol dori-darmonlarni o'zgartirish kerak bo'ladi, bu esa davolanish natijalarini yaxshilashga imkon beradi.

Shuningdek, hozirgi vaqtda, jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlarini potentsial radikal davolashning yagona usuli u yoki bu darajada jigar rezeksiyasi shaklidagi jarrohlik amaliyoti bo'lib qolmoqda; shu bilan bir qatorda, onkologlar imkoniyatlari doirasida radiochastota termoablatsiyasi, kriodestruksiya, lazerli destruksiya, elektrokimyoviy liziz va boshqalar shakldagi o'simtaga mahalliy ta'sir qilish usullari mavjuddir. Shu bilan birga, turli mualliflarning fikrlariga ko'ra, operabellik 10-15% dan oshmaydi. Jarrohlik amaliyoti qo'llashga qarshi bo'ladigan holatlarga o'simtaning ekstragepatik tarqalishi, ko'plab bilobar jigar shikastlanishlarining mavjudligi, magistral qon tomirlari va yo'llarining jalb qilinishi va jiddiy hamroh bo'lgan kasalliklarning mavjudligi kabi omillar kiradi, ammo bu kontrendikatsiyalar mutlaq emas. Operatsiyadan oldingi zamonaviy kimyoterapiya, portal vena shoxlarini embolizatsiya qilish, jigar rezeksiyasi va mahalliy o'simtalarini yo'q qilish usullarini keng qo'llash bilan ba'zi "operatsiya qilinmaydigan" bemorlarda jarrohlik davolash imkoniyatini yuzaga keltirish mumkin, bu esa rezektabellikni oshiradi.

Metastatik kolorektal saraton doirasida jigar rezeksiyasi amalga oshirilgan bemorlarda kasallikning 10 yil ichida qaytalanish xavfi 90 foizgacha yuqori bo'ladi. Kasallikning qaytalanishi ko'pincha jigarda sodir bo'ladi (taxminan 60%), bilobar va yoki ko'plab shikastlanishlar bo'lishi, kapsulaning yo'qligi, infiltrativ o'simta o'sishi, o'simta atrofida limfotsit chiqzig'ining yo'qligi, past o'simta differentsiatsiyasi, jigar rezeksiya chegaralarining nomutanosib ekanligi kabi yomon alomatlar mavjud bo'lganda xavf yanada yuqori bo'ladi. Jigar operatsiyasidan keyin kasallikning qaytalanish xavfini kamaytirish uchun qo'shimcha adyuvant davolash qo'llanilishi mumkin. Hozirgi vaqtda, kombinatsiyalangan davolash doirasida yo'g'on ichak saratonining lokalva mahalliy rivojlangan shakllarini neoadyuvant va adyuvant davolash usullari yaxshi ma'lumdir. Bunday holda, qoida tariqasida, o'simta sohasiga uzoq muddatli natijalarni yaxshilashi mumkin bo'lgan nurli terapiyava mintaqaviy metastazning mumkin bo'lgan yo'llari va ftorpirimidinlarni o'z ichiga olgan kimyoterapiya sxemalari qo'llaniladi.

Yo'g'on ichak saratonining II-III bosqichida adyuvant rejimda leykovorin va 5-ftoruratsil infuzioni shaklidagi (eloksatin bilan birgalikda yoki usiz) tizimli kimyoterapiya ta'sirini o'rganish bo'yicha ko'p markazli tadqiqot (MOZAIC) o'tkazilib, operatsiyadan keyingi FOLFOX kimyoterapiyasi LV5FU2 sxemasiga nisbatan uzoq muddatli natijalarni yaxshilaganligini ko'rsatdi. Uch yillik kasalliksiz omon qolish darajasi 72,9% ga nisbatan 78,2% ni tashkil etdi, shungamos ravishda  $p = 0,002$ . NSABP C-07 tadqiqotida ham shunga o'xshash natijalar II-III bosqichdagi yo'g'on ichak saratonining adyuvant kimyoterapiyasida FULV (leykovorin  $500 \text{ mg/m}^2$ , ftorurasil  $500 \text{ mg/m}^2$ , 1 haftada olti marta yuboriladi, ikki hafta tanaffus, jami 3 ta sakkiz haftalik sikl) sxemasi bilan solishtirganda, FLOX sxemasining afzalligini ko'rsatdi (1, 15, 29-kunlarda oksaliplatinning ikki soatlik infuzioni  $85 \text{ mg/m}^2$ , ftoruratsilni haftalik bolyus yuborish va leykovorinning 2 soatlik infuzioni bilan birgalidka). Shuningdek hodisasiz omon qolish darajasi ham baholandi; FLOX guruhida nisbiy xavf 0,81 ni tashkil etdi (95% II 0,69-0,94).

Kolorektal o'simta metastazlarida jigar rezeksiyasidan keyin kimyoterapiyadan foydalanish ham mumkin. Qoida tariqasida, ftorpirimidinlarga asoslangan sxemalar tomir ichiga yuborish yoki infuziya shaklida qo'llaniladi, bu esa uzoq muddatli natijalarni yaxshilaydi. Shunday qilib, Portier G. jarrohlik davolash bilan solishtirganda operatsiyadan keyingi kimyoterapiya (5-ftoruaratsil, leykovorin sxemasining 6 kursi) bilan birgalikda jigar rezeksiyasidan so'ng metastatik yo'g'on ichak o'simtasi bilan og'riqan bemorlarning umumiy va qaytalanishlarsiz omon qolishini baholagan randomlashtirilgan tadqiqot o'tkazdi. Retsidivlarsiz omon qolishda kombinatsiyalangan davolanishning sezilarli afzalligi qo'lga kiritildi, ammo umumiy omon qolishko'rsatkichlarining yaxshilanishi statistik darajagacha yetgani yo'q.

Yo'g'on ichak o'simtasining keng tarqalgan shakllarini davolashda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan yangi dorilar (irinotekan, oksaliplatin, raltitreksed, targetpreparatlar) paydo bo'lishi bilan ularning adyuvant rejimda samaradorligini o'rganish borasidagi tadqiqotlar juda dolzarbdir.

Jigarda kolorektal o'sma metastazlarini jarrohlik yo'li bilan olib tashlashdan keyin 5-ftoruratsil va FUDR preparatlari bilan mintaqaviy kimyoterapiyani qo'llash bo'yicha katta tajriba mavjud, ammo bu borada yetarlicha bir-biriga zid keluvchi natijalar olingan.

Shunday qilib, metastatik yo'g'on ichak saratoni bilan birgalikda jigarshikastlanishi kuzatilgan bemorlarni davolashda sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, rezektabellik darajasi juda past bo'lib qolmoqda va kasallikning qaytalanishi ko'pchilikda sodir bo'ladi. Shu munosabat bilan, ushbu guruh bemorlarini davolashda, jigar rezeksiyasidan tashqari, metastazlarni mahalliy destruksiya qilish usullari, intervension usullar, shuningdek, zamonaviy sxemalardan hamda yordamchi kimyoterapiyadan foydalangan holda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish kerak.

## **1 - BOB**

### **ADABIYOT SHARHI**

#### **1.1. Epidemiologiya**

Yo‘g‘on ichak saratoni zamonaviy onkologiya sohasining dolzarb muammosidir. Har yili dunyoda ushbu lokalizatsiya (soha) o‘simtalarining milliondan ortiq yangi holatlari, Rossiyada esa 50 mingdan ortiq holatlar qayd etiladi [11]. Ushbu patologiyadan kasallanish va o‘lim darajasi yildan yilga ortib bormoqda. Eng yuqori kasallanish darajasi AQSh, Kanada, G‘arbiy Yevropa mamlakatlari va Rossiyada kuzatiladi. Osiyo va Afrika mamlakatlarida kasallanish kamroq. Buyuk Britaniyada kolorektal o‘σμα barcha xavfli o‘smalarning 15% ni tashkil qilib, o‘pka saratonidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

2000 yilda Qo‘shma Shtatlarda 130,200 ta yo‘g‘on ichak o‘simtasi holati qayd etilgan, 56,300 bemor vafot etgan bo‘lib, 93% kasallanish holati 50 yoshdan oshgan odamlarga to‘g‘ri keladi. Kolorektal o‘σμα ayollar saraton bilan kasallanish strukturasi ko‘krak bezi saratonidan keyin ikkinchi o‘rinda, erkaklarda esa prostata bezi o‘simtasi va o‘pka saratonidan keyin uchinchi o‘rinda turadi.

Rossiyada yo‘g‘on ichak o‘simtasi bilan yangi tashxis qo‘yilgan har 100 bemorga 70 dan ortiq o‘lim holati to‘g‘ri keladi, ularning taxminan 40 foizi tashxis qo‘yilgan kundan boshlab 1 yil ichida vafot etadi. Buning sababi shundaki, bemorlar birinchi marta shifokorga tashrif buyurishganda, saratonning kechikkan bosqichlari (III-IV stadiyalari) yo‘g‘on ichak o‘simtasi bilan og‘rigan bemorlarning 71,4 foizida va to‘g‘ri ichak o‘simtasi bilan kasallanganlarning 62,4 foizida aniqlanadi [11].

Jigar turli xil xavfli o‘smalarning gematogen yo‘l bilan tarqalishining eng keng tarqalgan mo‘ljali hisoblanadi, shu bilan birga yo‘g‘on ichak o‘simtasi bilan og‘rigan bemorlarning taxminan yarmida jigar metastazlari rivojlanadi, bu birinchi navbatda yo‘g‘on ichakdan qonning portal tomir tizimi orqali drenajlanishi bilan bog‘liqdir. Izolyatsiyalangan jigar shikastlanishi taxminan ellik foiz hollarda sodir bo‘ladi. Yo‘g‘on ichak metastatik o‘smalari bilan og‘rigan bemorlarning o‘ziga xos

terapiyasisiz omon qolish muddati, qoida tariqasida, bir yilga ham bormaydi, bu esa klinik vaziyatga qarab tegishli davolash taktikasini izlashni talab qiladi.

## 1.2. Kolorektal saratonda jigar metastazlarining tasnifi va prognostik omillari

Metastatik jigar shikastlanishlarining turli klassifikatsiyalari va prognostik mezonlari mavjud. Eng batafsil va keng ma'lum bo'lgan tasnif L.Gennari va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan (1.1-jadval), ammo bu yerda ham haddan tashqari hajmlilik va klinik amaliyotda qo'llash qiyinligi bilan shartlanuvchi sezilarli kamchiliklar mavjud [60].

### 1.1 – Jadval

#### Metastatik jigar shikastlanishining L.Gennari bo'yicha tasnifi

Ko'rsatkichlar: H (o'simta hajmi)	H1 - <25% jigar H2 - 25 - 50% H3->50%
s - bitta tugun m - bir nechta tugunlar b - bilateralshikastlanish (jigarning ikkala bo'lagining ham) i - qo'shni organlar va to'qimalarning infiltratsiyasi E - jigar vazifasining buzilishi (disfunksiyasi) saratoning A - yengil va B - sezilarli darajada ekstrahepatik tarqalishi	
Stadiyalar	Eslatma
I (H1s)	Jigar rezeksiyasidan keyin 5 yillik omon qolish darajasi 20-42%
II (H2s; H1m, b)	Rezeksiyadan keyin o'rtacha omon qolish 10-14 oyni tashkil qiladi, aksariyat bemorlarda qayta kasallanish kuzatiladi.
III (H2m, b; H3s, m, b, i)	Rezeksiyadan keyingi prognoz 100% qaytalanishi tufayli yomon
IV (bir xil qo'shimcha A yoki B)	Mutlaqo operatsiya qilib bo'lmaydigan bemorlar, ammo A da prognoz biroz yaxshiroq bo'ladi

Bundan tashqari, bir guruhdagi bemorlar butunlay boshqacha prognozlarga ega bo'lishi mumkin, bunga yo'l qo'yish mumkin emas. Y.Fongning prognostik omillar sxemasinisbtan soddaroqdir: metastazning o'lchami 5 sm dan ortiq, ichak rezeksiyasidan keyin rivojlanish vaqti 12 oydan kam, bir nechta metastazning mavjudligi, jarrohlik paytida birlamchi kasallik o'chog'idagimintaqaviy limfa

tugunlarining shikastlanishi, CEA darajasi 200 ng/ml dan ortiq. Mualliflar birinchi guruhga prognostik jihatdan salbiy omillari bo'lmagan yoki bitta omil bo'lgan, ikkinchi guruhga ikki yoki uchta salbiy omil mavjud bo'lgan, uchinchi guruhga esa uchtdan ko'p bo'lgan bemorlarni kiritdilar. Besh yillik omon qolish darajasi birinchi guruhda 52%, ikkinchi guruhda 23% va uchinchi guruhda 11% edi [90]. Ushbu klassifikatsiya asosan klinitsist- bemorning davolanish prognozini aniqlash hamda bemorni ratsional davolash rejasini tuzish masalalarini hal qiladi. Radikal bo'lmagan rezeksiya (R1 yoki R2), jigardan tashqari metastazlarning mavjudligi ham prognostik jihatdan salbiy omillar sanaladi.

R. Adam yomon prognozga quyidagi omillarini kiritadi: to'g'ri ichak o'smasi metastazlari, uchta yoki undan ko'p o'choqlar mavjudligi, o'simta hajmi 10 sm dan ortiq, CA 19-9 o'simta marker darajasi 100 e\l dan ortiq [22]. Faktorlar yig'indisi bemorni ma'lum bir prognozga ega bo'lgan guruhga ajratish imkonini beradi (1.2-jadval).

Jarrohlikning rivojlanishini hisobga olgan holda gepatologiya va: kimyoterapiyadagi yutuqlar; ECMTG(kolorektal o'sma metastazlarini davolash bo'yicha Yevropa guruhi) tomonidan yo'g'on ichak saratonining 4-stadiyasi tasnifi ishlab chiqilgan (1.3-jadval).

### ***1.2 – Jadval***

#### **Adam R bo'yicha prognostik omillarning tasnifi**

To'g'ri ichak o'smasi metastazi	3 dan ortiq metastazlar	Operatsiyagacha CA19-9 darajasi > 100 IU/l	Tugun hajmi > 10 sm	Umumiy yashab ketish		Omillar yig'indisi
				3 yillik	5 yillik	
-	-	-	-	74%	59%	0
+	-	-	-	60%	41%	1
-	+	-	-	53%	32%	
-	-	+	-	46%	25%	
-	-	-	+	44%	23%	
+	+	-	-	33%	14%	2
+	-	+	-	26%	9%	
+	-	-	+	24%	8%	
-	+	+	-	19%	5%	

-	+	-	+	17%	4%	3
-	-	+	+	11%	2%	
+	+	+	-	6%	1%	
+	+	-	+	5%	0%	
+	-	+	+	2%	0%	
-	+	+	+	1%	0%	
-	+	+	+	0%	0%	4

### 1.3 - Jadval

#### Yo'g'on ichak saratonining 4- stadiyasi tasnifi(ECMTG mezonlari bo'yicha)

Mo	Metastazlar yo'q
M1a	Rezektabel metastazlar mavjudligi
M1b	Potentsial rezeksiya qilish mumkin bo'lgan jigar metastazlari, hajmi kichraytirilgandan keyin olib tashlanishi mumkin.
M1c	Rezektabel bo'lishi imkonsiz bo'lgan jigar metastazlari

Ushbu tasnifning asosiy mezoni - bu "adekvat" rezeksiya chegaralarini (CR) va qolgan jigar parenximasi hajmini kamida 30% ni tashkil etgan holda barcha o'simta tugunlarini olib tashlashning texnik imkoniyatidir Bundan tashqari, mualliflar M1c guruhida ham jigarni rezeksiya qilish dargumon ekanligini ta'kidlaydilar; lekin butunlay inkor ham qilinmaydi. Bemorlarning kichik bir qismi muvaffaqiyatli kimyoterapiya, portal venaning o'ng shoxini embolizatsiya qilish va boshqalardan so'ng radikal jarrohlik amaliyotini boshdan o'tkazishi ham mumkin.

### 1.3. Jigarga yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda kimyoterapiya va jigar rezeksiyasining o'rni:

Kolorektal saraton nisbatan dori-darmonlarga chidamli o'simtadir. Ftorurasildan foydalangan holda, shu jumladan leykovorin bilan birgalikda kimyoviy terapiya 20-40% hollarda obyektiv samara bera oladi, ammo o'rtacha umr ko'rish 12 oydan oshmaydi [6, 7, 36, 47, 113]

Kimyoterapevtik rejimlarni, jumladan irinotekan, oksaliplatin va maqsadli preparatlarni qo'llash bemorlarning ushbu toifasini davolashda sezilarli

muvaffaqiyatlarga erishish imkonini berdi. Ushbu guruhdagi o'rtacha umr ko'rish 20 oydan oshdi [36, 78, 116].

Kimyoterapevtik vositalarni ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilganiga qaramay, metastatik yo'g'on ichak o'smasi bilan og'rikan bemorlar uchun yagona potentsial radikal davolash usuli hali ham jarrohlik amaliyoti hisoblanadi. Metastatik kolorektal o'sma doirasida jigar rezeksiyasi amalga oshirilgan bemorlarning besh yillik omon qolish darajasi o'rtacha 25% ni tashkil qiladi, ammo yaxshi prognozli guruhlarda 35-58% ga yetishi ham mumkin [55]. Jigar metastazlari bo'lgan yo'g'on ichak saratoni bilan og'rikan bemorlarning 10-20% gacha qismijigar rezeksiyasiga duch kelishi mumkin [21]. Aksariyat hollarda jigar rezeksiyasiga mutlaq kontrendikatsiyalar mavjud bo'ladi: 6 dan ortiq segmentlarga shikast yetkazgan ko'plab bilobar jigar shikastlanishlari yoki jigar parenximasining qoldiq hajmi 20% dan kam bo'lishi, katta tomirlar va o't yo'llarining shikastlanishi bilan jigarning kaval yoki portal venalarida jarohatlarning joylashganligi, olib tashlanmaydigan ekstrahepatik metastazlar mavjudligi, jigarning funksional zahiralarning sezilarli darajada pasayishi –Child-Pugh [40, 108] bo'yicha B yoki C shakl sirrozi. Kasallikning qaytalanishi ko'pchilik bemorlarda uchraydi: ko'pincha jigarda, nisbatan kamroq hollarda o'pkada, retroperitoneal limfa tugunlarida va qorin parda bo'ylab kuzatiladi. Bunday vaziyatda, izolyatsiya qilingan jigar shikastlanishi mavjud holdakontrendikatsiyalarbo'lmasa, takroriy rezeksiya qilish amaliyoti oqlanadi.

Ekstrahepatik tarqalishning mavjudligi kasallik prognozini keskin yomonlashtiradi. Yaqin vaqtgacha mazkur holat jigar rezeksiyasiga mutlaqo qarshi ko'rsatma hisoblanardi. Ammo so'nggi olib borilgan ishlar kolorektal o'sma metastazlari bilan og'rikan bemorlarni birgalikda davolash nuqtai nazaridanjigardan tashqari, o'pka, gepatoduodenal ligamentning limfa tugunlarida vaTruncus coeliacusda[23], tuxumdonlarda va hatto qorin pardasida cheklangan implantatsiya metastazlari mavjudligida ham jarrohlik amaliyoti bosqichining maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi [55]. Biroq, barcha klinikalar ham bunday agressiv taktikalarga amal qilmaydi.



#### **1.4. Jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasi metastazlari bo‘lgan bemorlarni davolashda operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning roli**

Jigarda yo‘g‘on ichak saratoni metastazlari bo‘lgan bemorlarni jarrohlik davolashning tezkor va uzoq muddatli natijalarini yaxshilash uchun jarrohlar, kimyoterapevtlar, morfologlar, rentgenologlar va nurlil diagnostika mutaxassislarini jalb qilgan holda yondashishni talab etiladi. Jigar metastazlari bo‘lgan bemorlarning rezeksiya qobiliyatini oshirishning bir necha yo‘llari mavjud: neoadyuvant kimyoterapiya, odatda portal venaning o‘ng shoxchasini embolizatsiya qilish yoki bog‘lash, ikki bosqichli operatsiyalarni amalga oshirish, ablativ usullardan foydalanish (radiochastotali termoablatsiya, kriodestruksiya yoki o‘smaga mahalliy intervension ta’sir qilishning boshqa usullari). Bir bemorda bir nechta usullarning kombinatsiyasini qo‘llash tobora ortmoqda.

Jigarda yo‘g‘on ichak saratoni metastazlari bo‘lgan bemorlarda zamonaviy sxemalar va dorilar (oksaliplatin, irinotekan, kapetsitabin, bevatsizumab, erbituks) yordamida kimyoterapiyaning ob’ektiv ta’siri (shu jumladan kasallikning barqarorlashuvi) 82% ni tashkil qilib, to‘liq va qisman javoblar chastotasi 73% ga boradi. Shu bilan birga, jigarni davolay olish samarasini beruvchi rezeksiya jigarning alohida shikastlanishi bo‘lgan birlamchi operatsiya qilinmaydigan bemorlarning 24-54 foizida va jigardan tashqari metastazlari bo‘lgan bemorlarning 12,5 foizida amalga oshirilishi mumkin [22, 93].

Tizimli kimyoterapiyaning mintaqaviy kimyoterapiya bilan kombinatsiyasi o‘smaga qarshi davolash samaradorligini oshirishi mumkin, shu jumladan samarasiz tizimli kimyoterapiyadan keyin operatsiyadan oldingi kurs sifatida. Buni V. Boige jigarda rezeksiya qilib bo‘lmaydigan yo‘g‘on ichak saratoni metastazlari bo‘lgan 44 bemorni o‘z ichiga olgan tadqiqotida ko‘rsatib berdi. Barcha bemorlarda oksaliplatin yoki irinotekan bilan amalga oshirilgan oldingi tizimli davolashda progressiya kuzatilgan. Bemorlarga oyiga ikki marta leykovorin va 5-ftorurasil bilan birgalikda ikki soatlik oksaliplatin ( $100 \text{ mg}/^2$ ) intrahepatik infuzioni yuborilgan. Qisman regressiya darajasi 62% ni tashkil etdi, 7 bemorda jigar rezeksiyasi (Ro), bitta bemorda radiochastota termoablatsiya o‘tkazildi [35].

M.Miyanari hammualliflar bilan birgalikda intrahepatik intraarterial kimyoinfuziyadan so'ng texnik jihatdan rezeksiya qilib bo'lmaydigan metastazlari bo'lgan bemorlarda jigar rezeksiyasini amalga oshirdilar. 64 bemordan 16 nafari jarrohlik holatiga o'tkazildi, operatsiya qilingan barcha bemorlar kontrendikatsiyalar paydo bo'lgunga qadar yordamchi arterial kimyoterapiya qabul qilishdi. Bu guruhdagi besh yillik omon qolish darajasi 35,1% ga yetdi [83].

Shartli ravishda operatsiya qilinadigan bemorlarga (tizimli yoki mintaqaviy) qo'llaniladigan operatsiyadan oldingi kimyoterapiya o'sma tugunlari hajmini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, bu jarrohlik davolash uchun sharoitlarni yaxshilashi mumkin. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya samaradorligi, shuningdek, prognozi yomon bo'lgan bemorlar guruhida mustaqil prognostik omil bo'lib (masalan, ko'plab jigar metastazlari bo'lganda yoki jigardan tashqari metastazlarga shubha bo'lsa), shuningdek boshqalar bilan birgalikda jigar rezeksiyasi uchun bemorlarni tanlash mezonini bo'lib xizmat qilishi mumkin.[21, 25-26,116]. Biroq, bir nechta polikimoterapiya kurslaridan so'ng jigar rezeksiyasini amalga oshirish, dorilarning gepatotoksikligi tufayli jigar yetishmovchiligining yuqori xavfi mavjudligi bilan bog'liq. Bunday sharoitda qon tomir endotelial o'sish omili ingibitorini o'z ichiga olgan sxemalardan foydalanish jigar parenximasi va yarasi regeneratsiyasining sekinlashishiga olib kelishi mumkin [40]. Antiangiogen dorilarning o'ziga xos ta'siri bilan bog'liq asoratlarni oldini olish uchun bevasizumabni oxirgi yuborish va jigar rezeksiyasi o'rtasida 4-8 haftalik intervalni saqlash tavsiya etiladi. Shunday qilib, V. Grunbergerva T. Grunberger jigarda yo'g'on ichak saratonining izolyatsiya qilingan rezeksiyali metastazlari bo'lgan bemorlar uchun neoadyuvant kimyoterapiya sifatida kapesitabin / oksaliplatin / bevasizumab sxemasining yuqori samaradorligi va maqbul xavfsizligini ko'rsatib berishdi. Operatsiyadan oldingi davolanish sifatida ellik to'rtta bemor quyidagi sxemaga muvofiq kimyoterapiya oldi: kapesitabin 3500 mg/m<sup>2</sup>/kun 1-7 kun, oksaliplatin 85 mg/m<sup>2</sup>/kun. - birinchi kun, bevasizumab 5 mg/kg - birinchi kun. Tanaffus ikki hafta, jami olti kurs (3 oy) bo'lib, oxirgi kimyoterapiya kursi Avastinsiz o'tkazildi va shu bilan preparatni oxirgi qabul

qilish va jigar rezeksiyasi o'rtasida besh haftalik vaqt oralig'iga erishildi. Mualliflar tomonidan qayd etilgan eng ko'p uchraydigan asoratlar III-IV stadiyadagilarda bo'lib, ular quyidagilardir: 13% hollarda - periferik neyropatiya, diareya - 38% hollarda, 12% bemorlarda neytropeniya kuzatiladi. Tromboembolik asoratlar 7% hollarda rivojlangan. 2% hollarda kovak a'zoperforatsiyasi tashxisi qo'yilgan. 11% to'liq morfologik remissiyalar qayd etilib, umumiy javob 74% ni tashkil etdi. Bemorlarning 91 foizida jigar rezeksiyasi amalga oshirildi; ushbu guruhda mualliflar antiangiogen preparatlarni qo'llamasdan operatsiyadan oldin kimyoterapiya o'tkazgan bemorlar guruhlariga nisbatan perioperativ asoratlarning oshganini ko'rishmadi. Operatsiya paytida qon ketishining ko'payishi yoki qon quyish chastotasining oshishi kuzatilmadi. Jigar funksiyasini tiklash tezligi o'xshash edi. Jigar rezeksiyasidan uch oy o'tgach amalga oshirilgan kompyuter tomografiyasi ma'lumotlariga ko'ra, jigar regeneratsiyasi tezligi ikkala guruhda ham farq qilmadi [62-63]. Ba'zi boshqa tadqiqotlar ham operatsiyadan oldin, bevasizumabni qo'llash va jarrohlik amaliyoti o'rtasida 28 kunlik intervalni saqlab qolgan holda Avastin bilan kimyoterapiya qilingan vafaqat kimyoterapiyaning o'zini olgan bemorlar guruhlarida o'rtasida qon ketish va jarohatni davolashda statistik farqlar yo'qligini ko'rsatdi [53]. Biroq, jigar rezeksiyasidan oldin kimyoterapiya olgan bemorlar guruhida asoratlarning ko'payishini ko'rsatadigan tadqiqotlar mavjud [74]. M. Karoui va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, operatsiyadan oldingi kimyoterapiyani 5 kursgacha qo'llash asoratlar xavfini 13,6% dan 19,0% gacha va 10 dan ortiq kurslar - 61% gacha oshiradi [69]. Bir qator mualliflar veno-okklyuziv kasallikdagi buzilishlarga o'xshash o'zgarishlar sodir bo'ladigan ko'k jigar sindromining rivojlanishi bilan bog'liq [48,103] qon ketish va jigar yetishmovchiligining rivojlanishi hamda steatohepatit va steatosirrozga olib keladigan steatoz kabi asoratlarning yuqori chastotasini qayd qiladilar [27, 124].

G.Tisman va boshqalar bu kabi o'zgarishlarni (presinusoidal obstruksiya va tomirlarning tolali obstruksiyani) jigar metastazlari bo'lmagan, oksaliplatin va kapsitabin yordamidagi kimyoterapiyadan so'ng va shunga mos ravishda jigar

rezeksiyasi bo'lmagan bemorlarda keyinchalik portal gipertenziya va jigar yetishmovchiligi kuzatilganligini qay etishadi [115].

Shunday qilib, induksion kimyoterapiya jigar rezeksiyasi amalga oshirish mumkin bo'lgan bemorlarning sonini ko'paytirish imkonini berishi mumkin, ammo u qon ketishi, jigar yetishmovchiligi va jarohatning kech bitishi kabi asoratlarning rivojlanishiga sabab ham bo'lishi mumkin. Operatsiyadan keyingi asoratlarni xavfini kamaytirish uchun jigar rezeksiyasi operatsiyaga yaroqli holatga kelgandan so'ng, katta samaraga erishishni kutmasdan darhol amalga oshirilishi kerak [34]. Bundan tashqari, uzoq muddatli ko'p kursli neoadyuvant kimyoterapiyada (6 oydan ortiq) bir qator mualliflar normal biokimyoviy qon test natijalari va jigar test natijalari bo'lsa ham, "sog'lom" jigar parenximasidan biopsiya qilishni tavsiya qiladilar [53].

### **1.5. Jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda intervension texnologiyalar va mahalliy destruksiya usullaridan foydalangan holda agressiv jarrohlikning roli.**

Jigarning qolgan qismining gipertrofiyasiga erishish uchun portal vena shoxlaridan birini mexanik embolizatsiya yoki bog'lash amalga oshiriladi. Portal vena orqali o'tadigan qon oqimi jigar regeneratsiyasi uchun javobgardir - qon oqimidan mahrum bo'lgan organning bir qismi hajmi kamayadi, ikkinchisi, aksincha, gipertrofiyaga uchraydi. Jigar rezeksiyasining taxminiy hajmi 70% dan oshadigan (siroz mavjud bo'lganda 50-60%) bemor portal vena embolizatsiyasi amaliyotiga nomzod sifatida ko'rib chiqilishi kerak [40,119]. Qolgan jigar parenximasining hajmini o'lchash uchun (*future remnant liver volume - FRLV*) jigarning kompyuter va yoki magnit-rezonans tomografiyasi amalga oshiriladi, so'ngra qo'lda yoki maxsus dasturlar (volumetriya) yordamida butun jigar hajmi hisoblanadi. Rezeksiya chegaralarini aniqlagandan so'ng, qolgan parenximaning hajmi hisoblanadi. Jigar sirozi bo'lmaganda "xavfsiz" rezeksiya qilish uchun 30% qism, siroz mavjud bo'lganda - 50%, operatsiyadan oldingi kimyoterapiyada - 40% hajm yetarli deb hisoblanadi [21, 40].

E. Oussoultzogluya hammualliflar operatsiyadan oldingi portal vena embolizatsiyasining kasallikning qaytalanishi rivojlanishiga ta'sirini o'rganishdi va qiziqarli fakti aniqladilar: protsedura o'ng yarim gepatektomiyadan keyin metastatik yo'g'on ichak saratoni bilan og'riqan bemorlarda kontralateral sohada intrahepatik takrorlanish xavfini kamaytiradi. Operatsiyadan oldingi vena embolizatsiyasi bo'lgan bemorlar guruhida uch va besh yillik omon qolish darajasi 61,2% va 43,7% ni tashkil etdi, embolizatsiyasiz - mos ravishda 49,7% va 35,5%ni, ammo o'rtadagi farq aniq emas ( $p = 0,862$ ). Mualliflar ushbu holatniqon oqimi to'xtatilgandan so'ng, portal vena shoxlari bo'ylab mikrometastazlarning metastazsiz qismga o'tish ehtimolining pasayishi bilan izohlaydilar [95].

Jigarda yo'g'on ichak saratonining ko'p bilobar metastazlari bo'lgan bemorlarda ko'pincha metastazlarni texnik jihatdan olib tashlash mumkin bo'lishiga qaramay, qolgan parenximaning taxminiy hajmi yetarli darajada emasligiva shunga mos ravishda operatsiyadan keyingi davrda jigar etishmovchiligining yuqori xavfi tufayli amaliyotga tavsiya etilmaydi. Shu maqsadda, kattaroq shikastlangan qismning yon tomonidagi portal venaning shoxini embolizatsiya qilish kamroq kasallangan qismning gipertrofiyasi uchun ham joizdir. Keyinchalik, bemorlarda embolizatsiya tomonidagi qismni olib tashlash va qarama-qarshi tomonda qisman rezeksiyalar bo'lishi mumkin. Ammo bu holda metastazlarning rivojlanishi jigar parenximasining o'sishidan oshib ketishi mumkin va xavfsiz rezeksiya qilish imkoniyati shubha ostida qoladi. Bunday qiyin vaziyatda, jigar yetishmovchiligining nisbatan past xavfi bilan rezektbellikni oshirish uchun bir qator mualliflar ikki bosqichli jigar operatsiyalarini o'tkazishni tavsiya qiladilar: jigarni tejamkor rezeksiya qilish yoki kichikroq shikastlanish tomonida mahalliy destruksiya qilish usullari, embolizatsiya yoki qarama-qarshi tomonning portal vena shoxini bog'lash kabilarni. Adekvat gipertrofiyaga erishgandan so'ng, gemigeptektomiya standart yoki kengaytirilgan holda amalga oshiriladi [22, 68].

D.Jaek va hammualliflar tadqiqot o'tkazgan bo'lib, unda birinchi bosqichda jigarda yo'g'on ichak saratonining rezeksiya qilib bo'lmaydigan ko'p bilobar

metastazlari bo'lgan 33 bemorda jigarning chap bo'lagidagi metastazlarni olib tashlash yoki radiochastota termoablatsiyasi va portal venaning o'ng shoxchasi embolizatsiyasi amalga oshirildi. Keyinchalik jigar chap bo'lagining gipertrofiyasidan so'ng esa, 25 bemorda (75,7%) o'ng yarim gepatektomiya o'tkazishning imkoni bo'ldi. Birinchi rezeksiyadan keyin 15,1% hollarda, portal vena embolizatsiyasidan keyin 18,1% hollarda va ikkinchi jigar rezeksiyasidan keyin 56% hollarda asoratlar kuzatildi, o'lim holatlari esa kuzatilmadi. Umid beruvchi uzoq muddatli natijalarga erishildi: ikki bosqichli jigar rezeksiyasidan so'ng bir va uch yillik omon qolish darajasi mos ravishda 70,0% va 54,4% ni tashkil etdi [68].

D.Cionivahammualiflar intrahepatik kimyoterapiya bilan birgalikda, ammo portal vena embolizatsiyasiz, massiv bilobar shikastlanishdaikki bosqichli jigar rezeksiyasi imkoniyatini ko'rsatib berishdi [39]. Birinchi bosqichda chap qismda kichik hajmli metastazlarni qoldirib, o'ng yarim gepatektomiya o'tkazildi. Jigar funksiyasi tiklangandan so'ng, bemorga jigar arteriyasiga kimyoviy infuziya(FUDR) o'tkazildi va keyinchalik jigarning chap bo'lagining rezeksiyasi amalga oshirildi.

Jarrohlik usuli hozirgi vaqtda jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda "oltin standart" bo'lib, bemorga tuzalish yoki uzoq muddatli remissiya uchun haqiqiy imkoniyat beradi. Ko'p va yoki bilobar metastazlar, FRLV 25-30% dan kam, olti segmentning shikastlanishi, jigardan tashqari metastazlarning mavjudligi, o'sma infiltratida asosiy tomirlar va yoki yo'llarning ishtiroki kabi kontrendikatsiyalar mavjud bo'lsa ham - jigar rezeksiyasiinkor qilinmaydi. Yuqorida aytib o'tilganidek, neoadyuvant kimyoterapiya va yoki portal tomir embolizatsiyasidan keyin jigarda jarrohlik amaliyoti o'tkazilishi mumkin. Jarrohlik texnologiyalari, anesteziologiya va reanimatologiya, intervension radiologiya va kimyoterapiyadagi yutuqlar tufayli jigarda katta tomirlar va qo'shni tuzilmalarni rezeksiya qilish, shuningdek, ekstrahepatik shikastlanishlarni olib tashlash bilan kengaytirilgan va kombinatsiyalangan operatsiyalarni bajarish mumkin bo'ldi. Y.Sakamotova

hammualliflar ikkita muvaffaqiyatli operatsiya haqida ma'lum qilishdi: kengaytirilgan chap tomonli hemigepatektomiya, so'ngra o'ng jigar venasining truncusi (oxiri) va PKV o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri anastomoz hosil bo'ladigan barcha asosiy jigar venalari bilan birga pastki kovak venaning old devori rezeksiyasi. Mualliflarning ta'kidlashicha, ushbu usuldan foydalangan holda, bemorlarning bunday guruhiga jarrohlik davolash uchun ko'rsatmalar berish imkoniyatini kengaytirish mumkin [105]. Ba'zi hollarda, aniq pastki o'ng jigar venasi mavjud bo'lganda, o'ng, o'rtava chap jigar venalarini rezeksiya qilish bilan kengaytirilgan chap tomon gemigepatektomiyani o'z ichiga olgan, keyinchalik qon tomirlarini qayta tiklash amaliyotisiz operatsiyani bajarish mumkin. O'ng pastki jigar venasi yetarlicha kalibrli bo'lganda venoz qon oqishining buzilishi kuzatilmadi [114]. Shuningdek, A.Chedid va hammualliflar [37] jigarning o'ng bo'lagidagi yo'g'on ichak saratoni metastazlari to'rtinchi va birinchi segmentlarga hamda chap qism o't yo'lga tarqalishi yuzasidan birinchi segment bilan kengaytirilgan o'ng tomonlama gemigepatektomiya va jigardan tashqari o't yo'llarining rezeksiyasi (keyinchalik gepatikoenteroanastomoz shakllanishi bilan) holatini tasvirlab berishgan. Bunda, bemor 14 oydan keyin ham tirik bo'lgan.

Jigardagi alohidakasallik o'choqlarni jarrohlik yo'li bilan olib tashlashning iloji bo'lmasa, metastazlarni mahalliy yo'q qilish usullaridan operatsiyaning asosiy qismi qilib bo'lingach, operatsiya jarayonida va yoki undan keyin teri orqali amalga oshirish ham mumkin [24, 52]. T. Pawlik va hammualliflar o'z tadqiqotlarida jigarda to'rt yoki undan ortiq yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan 159 nafar bemordan iborat guruhda barcha aniqlangan metastazlarni olib tashlash, zarurat tug'ilganda esa texnik jihatdan rezeksiya qilib bo'lmaydigan shikastlanishlarda radiochastota termoblatsiyasi bilan agressiv yondashish imkoniyatini ko'rsatib berdilar. Besh yillik qaytalanishsiz omon qolish darajasi jigar rezeksiyasi va RChA o'tkazilgan bemorlar guruhida 63,5% ga yetdi [98].

D.Eliastexnik jihatdan rezeksiya qilib bo'lmaydigan jigardayo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan, ayrim bemorlarda jigardan tashqari metastazlar olib tashlangan (27%) 63 nafar bemorni kompleks davolash natijalarini ma'lum qildi.


Mualliflar rezeksiyani amalga oshirib bo'lmaydigan mezonlarni ko'rib chiqib quyidagilarni kiritdilar: "butun" jigarga ta'sir qiluvchi 5 dan ortiq metastazlar, jigarning ikkala bo'lagida ham metastazlar mavjudligi (shu bilan birga bir sektor bo'sh), magistral tomir tuzilmalariga tarqalganligi, Ro rezeksiyani amalga oshirish imkonining yo'qligi. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya 57 bemorda o'tkazildi, 31 nafarida qisman samara ko'rsatdi. Operatsiyadan keyingi o'lim kuzatilmadi, 27% bemorda asoratlari rivojlandi. Kemoterapiya 44 bemorga o'tkazildi, umumiy ikki yillik omon qolish darajasi 67% ni tashkil etdi, o'rtacha omon qolish davri 36 oyga yetdi. Mualliflarning xulosasiga ko'ra, jigar rezeksiyasi, metastazlarning radiochastotali termoablatsiyasi va perioperativ kimyoterapiyaning kombinatsiyasi texnik jihatdan rezeksiya qilinmaydigan yo'g'on ichak o'smasi jigar metastazlari bo'lgan bemorlarda yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi [51].

Kasallanish o'choqlari kriodestruksiyasi mustaqil ravishda yoki rezeksiya qilinmaydigan metastazlar uchun jigar rezeksiyasiga qo'shimcha sifatida ham qo'llanilishi mumkin. Dong Bo Yan va hammualliflaramaliyotda jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan 172 bemorda kriodestruksiyani amalga oshirdilar; ba'zi bemorlarda jigar rezeksiyasi ham amalga oshirildi [121]. Kriodestruksiya ko'rish nazorati va intraoperativ ultratovush tekshiruvini ostida amalga oshirildi. Kriodestruksiyaga uchragan metastazlarning o'lchami diametri 15 sm ga yetardi. Agar ta'sirlangan hudud o'sma chetidan 1 sm orqaga chekinsa, ablatsiya to'laqonli deb hisoblandi. Yaxshiroq mahalliy ta'sirga erishish uchun 104 bemorda (60,5%) quyidagi jarayondan iborat qisman qo'shaloq "muzlatish-eritish" siklini o'tkazdilar: birinchi ta'sir qilish va tasodifiy eritishdan so'ng diametri 1 sm dan kichikroq applikator tanlanib takroriy kriodestruksiya amalga oshirildi; ikkinchi ta'sir qilish maydoniga deyarli hech qanday jigar to'qimasi kirmasdi, bu eritish (va operatsiya) vaqtini qisqartirdi va krioshok xavfini kamaytirdi. 5 bemorda (2,5%) qayta ta'sir qilish maydoni kamaymagan to'liq qo'shaloq "muzlatish-eritish" sikli qo'llanildi. Kichik kasallanish o'choqlariga bir marta ta'sir o'tkazildi. Operatsiya jigar arteriyasiga kateter o'rnatilishi bilan yakunlanardi va bemorlarning ko'pchiligi (91%) intraarterial kimyoterapiya oldi. Quyidagi sxema



qo'llanildi: 5-ftorurasil to'rt kun davomida 1g / sutkasiga, operatsiyadan keyin har oyda ikki haftadan. Agar bemor ilgari 5-ftorouratsil olgan bo'lsa, u holda tomir orqali kimyoterapiya 5-ftordezoksouridin 0,18 mg / kg dan ikki hafta davomida, ikki haftaoraliq bilan o'tkazildi. Agar bemor kimyoterapiyadan bosh tortgan bo'lsa, intrahepatik kimyoterapiyaga qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lsa yoki solitar metastaz bo'lsa, adyuvant davolash o'tkazilmagan. Kasallikning qaytalanishi holatida kriyoterapiya ta'siri doirasidagi o'sish 39% hollarda kuzatildi, jigar parenximasining boshqa qismlarida - 62% , ekstrahepatik metastazlarda 67% hollarda qayd etildi. Uzoq muddatli natijalar ham kuzatildi: bir, uch va besh yillik omon qolish darajasi barcha aniqlangan metastazlarning barchasiga jarrohlik aralashuvi o'tkazilgan, shu jumladan olib tashlanadigan ekstrahepatik metastazlaramaliyotidan o'tgan bemorlar guruhida mos ravishda 89%, 41% va 19% ni tashkil etdi. Olib bo'lmaydigan ekstrahepatik (5 bemor) yoki jigar metastazlari (21 bemor) bilan palliativ aralashuv (rezeksiya chegarasidagi o'sma hujayralari mavjud bo'lsa yoki ko'z bilan aniqlanadigan o'simta qoldirilgan) bo'lsa, bir va uch yillik omon qolish darajasi mos ravishda 65% va 13% ga yetdi, mos ravishda besh yillik omon qolish darajasi yo'q [121].

Mualliflar munozarali, ammo qiziqarli fakti ta'kidladilar: metastazlar soni prognostik jihatdan muhim omil emas; ko'p jigar shikastlanishi bilan ( $\geq 4$ ) ham uzoq muddat omon qolish mumkin, buni jigar rezeksiyasi bo'lgan va bo'lmagan kriodestruksiyaga uchragan solitar va yagona metastazlarni solishtirishda ko'rish mumkin (1.1- rasm).



**1.1 Rasm. Metastazlar soniga qarab kriodestruksiyadan keyingi omon qolish (Dong Bo Yan)**

Jigarni kesish ko'pincha elektr pichoq yordamida rezeksiya tekisligida quvurli tuzilmalarning qisqichlari va parenxima o'rtasida kesish orqali amalga oshiriladi. Yakuniy gemostaz uchun qon ketish joylarini tikish, argon koagulyatsiyasi va takokomb ishlatilgan. Termoablatsiya qurilmalari, shuningdek, jigar rezeksiyasi uchun maxsus nasadkalar (qo'shimchalar) yaratilishi va amaliyotga keng joriy qilinishi tufayli ular yordamida jigar parenximasini kesish imkoniyati paydo bo'ldi. Biz 37 (8,1%) Habib - yordamli jarrohlik aralashuvlarini amalga oshirdik. Bunday qurilmani xavfsiz ishlatish uchun atrofdagi tuzilmalarni, birinchi navbatda pastki kavak venani shikastlamaslik uchun jigarni keng mobilizatsiya qilish kerak bo'ladi. Bunga muqobil bo'lib, avaskulyar zonada pastki kavak vena va jigarning orqa yuzasi o'rtasida ushlagichni joylashtirishdan iborat bo'lgan Hanging-manevri xizmat qilishi mumkin. Rezeksiya tekisligida koagulyatsiyani amalga oshirayotganda, jarroh ushlagichni yuqoriga tortadi, shu bilan pastki kavakvena va jigar orasidagi masofani oshiradi va shunga mos ravishda ushbu katta tomirning shikastlanish xavfini kamaytiradi (2.5-rasm).



**Shakl 2.5** Bemor M. Jigarda sigmasimon ichak o'smasi metastazlari. A-rasmda Hanging-manevrini (jigarning orqa yuzasi va pastki kavakvena o'rtasidagi asbob) bajarish uchun ushlab turish bosqichi ko'rsatilgan. Habib-Sealer apparati yordamida jigar rezeksiyasi tekisligida koagulyatsiya amalga oshiriladi (B-rasm).

Bemorlarning 23 tasida (5,1%) parenximani kesish uchun boshqa asboblari (suv oqimilik skalpel, ultratovush aspirator va boshqalar) qo'llanilgan. 2.10-jadvalda operatsiya hajmiga qarab metastazli yo'g'on ichak o'smasi yuzasidan jigar rezeksiyasi paytida o'rtacha intraoperativ qon yo'qotish ko'rsatilgan; alohida 2007 yil uchun 64 ta jarrohlik rezeksiyasidagi qon yo'qotishlar keltirilgan. O'ta keng rezeksiya holatida qon yo'qotish (2235,6 ml) gemigepatektomiya (1439,4 ml,  $p = 0,0001$ ) bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori edi. Tejamkorrezeksiyabilan bu ko'rsatkich mos ravishda keng rezeksiyaga qaraganda past (965,4 ml,  $p < 0,0001$ ). Operatsiya hajmidan qat'i nazar, qon yo'qotish, o'rtacha  $1396,2 \pm 1320,0$  ml, minimal qiymat - 100 ml, maksimal 10 000 ml ni tashkil qildi.

2007 yilda bo'limdagi qon yo'qotishning o'rtacha darajasi ham umumiy ( $1065,9 \pm 1026,5$  ml dan 100-5000 ml gacha), ham alohida guruhlarda kamayganliginisezmaslikning iloji yo'q, biz buni, birinchi navbatda, jigar operatsiyalari paytida jarrohlik texnikasining takomillashgani bilan bog'laymiz.

Ammo o'rtacha qiymat katta xato bilan berilgan, qon yo'qotishda statistik jihatdan sezilarli farq olinmagan ( $p = 0,55$ ).

### 2.10-jadval

#### Jigar rezeksiyalari paytida o'rtacha qon yo'qotish

Rezeksiya turi	Operatsiyalar soni			
	1990-2007 yillar oralig'ida		2007-y hisobida	
	Operatsiyalar soni	Qon yo'qotish O'Q±SO	Operatsiyalar soni	Qon yo'qotish O'Q±SO
Tejamkor	167	965.4±1180.0	23	763.3±988.5
Gemigepaktomiya	215	1439.4±1155.5	30	901.7±594.8
Kengaytirilgan gemigepaktomiya	72	2235.6±1639.0	11	2159.1±1337.3
Jami operatsiyalar	454	1396.2±1320.0	64	1065.9±1026.5
O'Q±SO – o'rtacha qiymat ± standart og'ish				

Shu munosabat bilan, jigar rezeksiyalari paytida (gemotransfuziya) qon quyish dinamikasi quyida aks ettirilgan (2.11-jadval).

Qizil qon hujayralarini quyish 128 bemorda amalga oshirildi, bu 28,2% ni tashkil etdi, ammo bu ko'rsatkich operatsiya hajmiga bog'liq. Jigarda tejamkor jarrohlik aralashuvlarida 30 nafar bemor (18%)ga qon quyish kerak bo'ldi, bu standart gemigepatektomiya vaqtidagi qon quyish chastotasiga nisbatan sezilarli darajada past natija ( $p = 0,019$ ) - 29%. Qon quyishni talab qiladigan jiddiy qon ketish asosan, jigarning o'ta keng rezeksiyalari vaqtida- 50% hollarda (36 operatsiya) tez-tez uchraydi ( $p = 0,0017$ ).

O'tgan yil davomida intraoperativ qon yo'qotishning kamayishi (yuqorida 2.10-jadvalda ko'rsatilganidek) tufayli bu davrda qon quyish chastotasi ham 1990-2006 yillardagi 30% dan 15,7% gacha kamaydi, farq sezilarli ( $p = 0,0022$ ), bu 2.11 jadvalda aks ettirilgan.

### 2.11-jadval

#### Operatsiya hajmiga qarab qizil qon hujayralarini quyish chastotasining o'zgarishi dinamikasi


Rezeksiya turi	Gemotransfuziyalar soni				p
	1990-2007 yillar oralig'ida		2007-y hisobida		
	Operatsiyalar soni 1990-2006	Absolyut qiymat va %	Operatsiyalar soni 2007 yil	Absolyut qiymat va %	
Tejamkor	144	29 20.1%	23	1 4.3%	0.0495
Gemigepaktomiya	185	59 32.1%	30	3 10.0%	0.0065
Kengaytirilgan gemigepaktomiya	61	30 49.2%	11	6 54.5%	>0.05
Jami operatsiyalar	390	118 30.3%	64	10 15.7%	0.0022

Tejamkor rezeksiyalar guruhida qon quyish chastotasini 20% dan 4,3% gacha kamaytirishga erishildi, farq sezilarli ( $p = 0,0495$ ). O'tgan yil davomida standart gemigepatektomiya holatida qizil qon hujayralarini quyish chastotasi 10% ni tashkil etdi, bu ham 1990-2006 yillardagi qon quyish chastotasidan sezilarli darajada past (32%,  $p = 0,0065$ ). Kengaytirilgan gemigepatektomiya vaqtida

bemorlarning yarmiga qon quyish talab etildi (2007 yilgacha bo‘lgan davrdagi 49,2% ga nisbatan 2007 yilda 54,4%, farq sezilarli emas,  $p = 1,0$ ).

### **2.5. Portal venaning o‘ng shoxchasi embolizatsiya qilinganidan keyingi jigar rezeksiyasi**

Standart yoki kengaytirilgan versiyada o‘ng tomonlama gemigepatektomiya doirasida tavsiya etilgan keng qamrovli jigar rezeksiyasidan oldin 13 bemorga (2.6-rasm) portal venaning o‘ng shoxchasi embolizatsiyasi o‘tkazildi.



**2.6-rasm.** Portal venaning o‘ng shoxini embolizatsiya qilish bosqichlari.

Manipulyatsiya jigar chap bo‘lagining kichik o‘lchamlari (FRL 25-30% dan kam bo‘lganligi) tufayli chap bo‘lakning gipertrofiyasi va qolgan jigar parenximasi hajmini oshirish (future remnant liver volume ), va shunga mos ravishda, operatsiyadan keyingi jigar yetishmovchiligi xavfi hamda buning asoratidan o‘lim darajasini kamaytirish maqsadida amalga oshirildi.

Jarayon oldidan portal venaning katta shoxlaridan birining ponksiyon yo‘nalishini tanlash uchun qaytaruvchi spleno- va mezenterikoportografiya amalga oshiriladi, shundan so‘ng portal venani to‘g‘ridan-to‘g‘ri kontrastlash usuli masalasi hal qilinadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri teri ostidan taloq orqali yoki teri ostidan jigar orqali portografiya portal va taloq venasining qon tomir anatomiyasining tashxisini aniqlashtirish va OPVE (Operatsiyadan oldin portal vena embolizatsiyasi)ni rejalashtirish uchun qo‘llaniladi.


Transsplenik kirilganda ponksion ultratovushli KTsi nazorati ostida, 7-9 qovurg'alararo bo'shliqda chapdagi o'rta aksillar chiziq bo'ylab, qat'iy ravishda qovurg'aning yuqori chegarasi bo'ylab ingichka Chiba 22 Gignasi yordamida amalga oshiriladi. Ignada qon paydo bo'lganda, kontrast modda sinov tariqasida yuborilishi kerak bo'ladi. Yo'naltiruvchi simdagi taloq venasi shoxlarida ignaning to'g'ri holatini tasdiqlagandan so'ng, ponksiyon ignasi intraduser bilan almashtiriladi, bu orqali biz odatda 5 F pig-tail yoki tekis (COOK) kateternikiritamiz. Anatomiciyaga qarab, biz kateterni provodnik bo'ylab taloq venasining distal bo'limiga yoki portal venaning tanasiga olib boramiz va to'g'ridan-to'g'ri splenoportografiya qilamiz. Odatda kateter orqali 25-30 ml kontrast modda 7-8 ml/sek tezlikda yuboriladi. Suratga olish sekundiga 1 yoki 2 ta surat rejimida 10 dan 20 soniyagacha amalga oshiriladi.

Transhepatik kirishdagi o'ziga xos xususiyat portal vena shoxlarining ponksiyon joyining tanlovidir. O'ng tomonlama kirish bilan ponksiyon o'ngdagi o'rta aksillarchiziq bilan 8-9 qovurg'alararo bo'shliqda qat'iy qovurg'aning yuqori qirrasini bo'ylab, chap tomonlama kirish - oldingi subksifoid yondashuv bo'ylab amalga oshiriladi. Qolgan jihatdan esa, bu protsedura avvalgisidan deyarli farq qilmaydi.

Har bir endovaskulyar texnika diagnostik va terapevtik jihatlarni o'zida uyg'unlashtirgan. Har qanday davolash endovaskulyar aralashuvini amalga oshirishdan oldin, yuqorida tavsiflangan diagnostika usullaridan biri yoki bir nechta amalga oshiriladi. Anatomiciya aniqlangandan so'ngva kontrendikatsiyalar mavjud bo'lmagan taqdirda, portal vena o'ng shoxi embolizatsiyasi amalga oshiriladi. Buning uchun kateterning uchi emboliya moddasining refluyksiyasini oldini olish uchun portal vena o'ng shoxchasining bo'linish joyidan chetroqqa joylashtiriladi. Agar portal vena sochma tarzda shoxlarga bo'lingan bo'lsa, unda har bir shox birma-bir kateterlanadi. Shundan so'ng, embolik suspenziya tayyorlanadi va periferik qismlar to'liq bloklanmaguncha qon-tomir yo'lga juda sekin yuboriladi. Lipiodol va RABROMning yuqori kontrasti portal venaning tiqilib qolgan shoxlarini material bilan to'ldirishni nazorat qilish va eng kichik

reflyuksiyani ham tasvirini olish va oz bo'lsa ham mavjud bo'lganda, keyinchalik kateterni tuzatishni nazarda tutgan holda preparatni qo'llashni to'xtatish imkonini berardi. Portal vena yo'liningva uning chap shoxining normal ochiqligini tasdiqlash uchun nazorat portografiyasi o'tkaziladi. Tomirlarni to'liq yopish uchun embolik aralashmalardan so'ng yuboriladigan metall spirallar va namat emboliyalar ishlatiladi. Portal venaning o'ng tarmog'i orqali qon oqimi yo'qligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, embolik vositalarni yuborish to'xtatiladi (2.6-rasm).Transsplenik kirilganda kateter yoki introduktor darhol olib tashlanmaydi, balki ponksiyon kanali bo'ylab tortiladi, bu holatda taxminan 15-20 daqiqa davomida to'liq gemostaza erishilgunga qadar mahkamlab qo'yiladi. Transhepatik kirish yordamida ponksiyon kanalining embolizatsiyasi amalga oshirildi vabunda kigiz emboliyasi qo'llaniladi.

Keyingi sutka tekshiruv rentgenogrammasida o'ng portal vena tizimida embolizatning joylashishi nazorat qilinadi. Uch haftadan so'ng, jigarning qolgan qismining hajmi, qon oqimining mavjudligi va darajasi portal venasi va uning asosiy shoxlari dendritik hujayralari bilan birga ultratovush KT siga muvofiq baholanadi. 3-5 haftadan so'ng (ultratovush KT natijalariga qarab) bemorlar jigarning gipertrofiyalangan qismining hajmini baholash uchun qorin bo'shlig'ining kompyuter tomografiyasidan o'tadilar va KT-volyumometriya yordamida *future remnant liver* hajmlari hisoblanadi. Agar kelgusida saqlanib qoladigan qoldiq jigar 25% dan ortiq bo'lsa va qolgan parenximada metastazlar bo'lmasa, jigarni rezeksiya qilish masalasi hal qilinadi.



2.7-rasm Dastlabki PVE bilan kengaytirilgan o'ng tomonlama gemigepatektomiyadan keyingi preparat(namuna). Embolizat va mikrospirallar portal venaning nurlanishi ostida tasvirlanmoqda.

2.7-rasmda kengaytirilgan o'ng tomonlama gemigepatektomiyadankeyingi makropreparat ko'rsatilgan.Bemorga rezeksiyadan oldin portal venaning o'ng shoxi embolizatsiyasi amalga oshirilgan.

### **2.6. Jigar rezeksiyasidan keyingi adyuvant kimyoterapiya**

1997 yildan boshlab jigar rezeksiyasidan so'ng bo'limda operatsiyadan keyingi kimyoterapiya qo'llanila boshlandi.Hammasi bo'lib 311 bemor shunday kimyoterapiya oldi. 136 bemorda 5-ftorurasil va leykovorin kombinatsiyasi, 149 bemorda esa oksaliptatin, 5-ftorurasil va leykovorin kombinatsiyasi yordamchi terapiya sifatida qo'llanilgan. Qolgan 26 bemor turli sabablarga ko'ra boshqa kimyoterapiya rejimlarini, shu jumladan raltitreksed, kapesitabin, irinotekan va bevasizumabni turlicha rejimlarda olishdi.

2004 yilgacha 5-ftorurasil va leykovorin (5-ftorurasil 600 mg/m<sup>2</sup>/sutkasiga 96 soatlik infuziya shaklida, leykovorin 100 mg/m<sup>2</sup> sutkasiga – infuziya shaklida 1-4 kunlari, har 28 kunda) kombinatsiyalar qo'llanilgan, keyinchalik esaROIM DTning Klinik farmakologiya va kimyoterapiya bo'limi tomonidan modifikatsita qilinganFOLFOX-6 rejimi qo'llanilgan (100 mg/m<sup>2</sup>oksaliptatin 5% dekstroz bilan ikki soatlik infuziya shaklida, 200 mg/m<sup>2</sup> leykovorin – ikki soatlik infuziyasi, 400 mg/m<sup>2</sup>5-ftorurasil bolus tarzda , so'ngra 5-ftorurasil 2400-3000 mg/m<sup>2</sup> 46 soatlik infuziya shaklida yuboriladi).



Kimyoterapiya jigar operatsiyasidan 2-8 hafta o'tgach amalga oshirildi. Birinchi kurs mintaqaviy ravishda, rentgen nazorati ostida o'rnatilgan kateter orqali jigar arteriyasiga yuborildi. Keyingi kurslar esa vena ichiga yuborildi (ekstrahepatik metastazlar mavjud bo'lganda, faqat tizimli kimyoterapiya o'tkazildi). Jigar arteriyasini kateterizatsiya qilish va kimyoterapiyaning birinchi kursi biokimyoviy ko'rsatkichlar (umumiy oqsil, albumin, ALT, AsT, bilirubin) normallashtirishdan so'ng amalga oshirildi. Biz tizimli yallig'lanish reaksiyasi belgilarisiz safro yo'llarining oqishi yoki safro suyuqligini kimyoterapiyaga qarshi ko'rsatma deb hisoblamadik. Davolashni boshlashni kechiktirish sababi sifatida yiringli-septik asoratlar va / yoki jigar yetishmovchiligining saqlanib qolayotgan belgilari mavjudligi holati olindi.

Ko'ngil aynishi va qayt qilishning oldini olish uchun kimyoterapiya boshlanishidan 30-60 daqiqa oldin serotonin retseptorlari antagonistlari (ko'pincha vena ichiga 8 mg ondasetron yoki 16 mg preoral shaklda) va glyukokortikoidlar (8 mg vena ichiga deksametazon) yuboriladi. Ko'ngil aynishi va qusish ko'rinishidagi gastrointestinal toksikliklar rivojlanishi bilan 5HT<sub>3</sub> retseptorlari blokatorlari ham qo'shimcha ravishda buyuriladi. Agar ikkinchi darajadan yuqori neyrotoksiklik rivojlansa, oksaliplatinni yuborishdan oldin kalsiy xlorid yoki glyukonat va magniy sulfat eritmalarini o'z ichiga olgan infuziya o'tkazildi [57, 58].

Mintaqaviy va tizimli kimyoterapiyaning nojo'ya ta'siri va toksikligi bemorni tekshirish va so'roq qilish, laboratoriya ma'lumotlari (har haftalik) tahlili davomida baholandi. Toksiklik darajasi National Cancer Institute Common Toxicity Criteria mezonlari bo'yicha aniqlandi [78]. Oksaliplatinning o'ziga xos toksikligi tufayli sensor neyropatiya uni ishlab chiqaruvchisi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus shkala yordamida baholandi (2.12-jadval). Nojo'ya ta'sirlarning chastotasi bemorlar soniga qarab hisoblab chiqilgan.

**Sensorli neyropatiyani baholash mezonlari**

<b>Toksiklik darajasi</b>	<b>Alomatlar</b>
0	Yo‘q
1	Qisqa muddatli va qaytariladigan, funksional buzilishlarsizparesteziya / dizesteziyalar.
2	Funksional buzilishlar bilan birga kuzatiladigan, ammo kundalik faoliyatni bajarishga xalaqit bermaydigan paresteziya / dizesteziyalar.
3	Kundalik faoliyatga xalaqit beradigan og‘riq yoki funksional buzilishlar bilan birga kuzatiladigan paresteziya / dizesteziyalar.
4	Nogironlikkacha olib keluvchi yoki hayot uchun xavfli bo‘lgan doimiy paresteziya/dizesteziyalar
Paresteziya / dizesteziya sovuqdan qo‘zg‘alishi ham mumkin.	

Mintaqaviy kursni o‘tkazish davomida, sitostatiklarning nojo‘ya tizimli ta'siridan tashqari, mahalliy asoratlari rivojlanishi ham mumkin. Shu munosabat bilan, intraarterial infuziyaning to‘liq davrida, bemorlar tibbiyot xodimlarining nazorati ostida bo‘lishdi. Kateter o‘rnatilgandan so‘ng angiografik monitoring va bemorni diqqat bilan kuzatish sitostatiklarning noto‘g‘ri perfuziyasi bilan bog‘liq preparatning yuqori konsentratsiyalarda kovak organ devoriga ta'siri tufayli oshqozon-ichak traktining o‘tkir yaralarining shakllanishi kabi asoratlarni kamaytirishga imkon beradi. Shu jumladan, ikkita bemorga kateterning migratsiyasi va kimyoviy gastroduodenitning klinik ko‘rinishining rivojlanishi - epigastriumda o‘tkir og‘riq, o‘zgargan qon bilan qusish tufayli keyingi intrahepatik infuziya rad etildi. EGDS da oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichakning o‘tkir eroziyalari va yaralari aniqlanganda kimyoterapiya to‘xtatildi, kateter olib tashlandi va yaraga qarshi terapiya buyurildi. Qat’iy yotoq rejimi, terining holatini

nazoratda ushlabva mintaqaviy kimyoterapiyaning butun davrida va kateterni olib tashlangandan keyingi kun davomida pastki ekstremitalarning arteriyalaridagi pulsatsiyasini o'lbhab turish trombotik va ishemik asoratlarni oldini olishga yordam beradi. Umumiy va biokimyoviy qon tahlillari natijalariga ko'ra (mintaqaviy kimyoterapiya kursidan oldin va keyin, so'ng har hafta) gepatotoksiklik va gematologik toksiklik baholab borildi.

Davolashni boshlash va davom ettirish uchun quyidagi mezonlardan foydalanildi [21, 96]:

\_1. Periferik qon neytrofillarining mutlaq soni 1500 hujayraga teng yoki undan ko'p

2. Trombotsitlar soni 100 mingga teng yoki undan ko'p.

3. Gemoglobin darajasi 9 g/dl dan yuqori.

4. Jigar disfunktsiyasining yo'qligi: umumiy bilirubin darajasi normaning yuqori chegarasidan ikki baravar qiymatdan oshmaydi, ALT va AST faolligi normaning yuqori chegarasidan uch baravar qiymatidan pastda bo'lishi.

5. Buyrak disfunktsiyasining yo'qligi: kreatinin darajasi normal yuqori qiymatdan 1,25 dan yuqori emas.

6. Diareya yo'qligi yoki birinchi darajadan ko'p emas.

7. Stomatit yo'qligi yoki birinchi darajadan ko'p emas.

8. Ikkinchi darajadan ko'p bo'lmagan boshqa toksiklik.

Ko'rsatkichlar mezonlar bilan mutanosib tushmagan holda, kimyoviy terapiya toksiklik birinchi darajagacha kamayguncha qoldiriladi va dori dozalari kamaytiriladi. Birinchi ikki kurs davomida 5FU dozasi 2400 mg /m<sup>2</sup>ni tashkil qiladi. Agar 1 darajadan ortiq toksiklik rivojlanmasa, 3-kursga kelib 5FUdozasi 3000 mg / m<sup>2</sup> gayetkaziladi.

Agar 4-darajali neytropeniya (mutlaq neytrofillar soni 1,5 ming/dl dan kam), trombotsitopeniya 1 darajadan yuqori (trombotsitlar soni 100 ming/dl dan kam), shuningdek, 4-darajali diareya yoki boshqa muhim gematologik bo'lmagan toksiklik rivojlanganda, navbatdagi kurskimyoterapiyani davom ettirish mezonlariga moslik darajasi tiklanishiga qadarar qoldiriladi. Keyingi kurslar

davomida 5-ftorurasilning dozasi  $3000 \text{ mg/m}^2$  dan  $2400 \text{ mg/m}^2$  gacha va  $2400 \text{ mg / m}^2$  doza  $2000 \text{ mg/m}^2$  gacha kamaytirildi.

Oksaliplatin dozalarini  $75 \text{ mg/m}^2$  ga reduksiyasi(kamaytirish) quyidagi hollarda amalga oshirildi: 4-darajali neytropeniya, 3-4-darajali trombotsitopeniya, 4-darajali diareya rivojlangan bo'lsa. Ikkinchi darajali paresteziya yuzaga kelsa, oksaliplatinning dozasi ham dastlab  $75 \text{ mg / m}^2$  gacha, simptomlar regressiyasi qayd qilinmasa -  $50 \text{ mg / m}^2$  gacha kamaytirildi.

Operatsiyadan keyingi kimyoterapiya paytida yoki kuzatuv vaqtida kasallik progressiyasi qayd qilingan bemorlarga boshqa davolanish taklif qilindi (qayta operatsiya, ablatsiya, boshqa dorilar, shu jumladan maqsadli(target) dorilar bilan kimyoterapiya) va umumiy omon qolish darajasini baholash uchun davomiy kuzatuv to'xtatilmadi.

Har bir bemorga 6 ta kimyoterapiya kursi, jigardan tashqari metastazlar bo'lsa, kamida 8 ta kurs rejalashtirilardi. Bemorlar tomonidan qabul qilingan kurslarning o'rtacha soni 4,7 ni tashkil etdi (2 dan 8 gacha). Davolanish davomiyligining qisqarishiga toksiklik (n=4), kasallik progressiyasi (n=14) va davolanishni davom ettirishdan bosh tortish (n=32) sabab bo'ldi.

## **2.7. Materiallarni qayta ishlashda qo'llaniladigan metodik va matematik usullar**

Statistik ishlov berish uchun barcha ma'lumotlar ishlab chiqilgan kodifikator yordamida rasmiylashtirildi va EXCEL elektron jadvallari asosida yaratilgan ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Tahlil uchun GraphPadPrism4 statistik dasturidan foydalanildi.Uzoq muddatli natijalar "life table" omon qolish jadvallarini tuzishning intervalli usuli yordamida hisoblab chiqilgan, bemorlarning o'rtacha omon qolishi Kaplan-Maer usuli yordamida hisoblangan.Omon qolish jadvallarini solishtirish uchun log-rank testi qo'llanildi (long-rank test).

Statistik tahlil saraton rivojlanishi bilan bog'liq bo'lmagan o'limni o'z ichiga oladi.

Miqdoriy ma'lumotlar yig'indilarning normal taqsimlanishi uchun o'rtacha qiymat va o'rtacha standart xato bilan taqdim etildi.

O'rtacha taqsimlangan miqdoriy ko'rsatkichlar orasidagi farqlarning ahamiyati t Student testi yordamida hisoblab chiqilgan. Oddiy bo'lmagan taqsimotga ega miqdoriy ma'lumotlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun Mann-Whitney testi (ikkita mustaqil guruh uchun) U-mezoni va qaram guruhlari uchun Wilcoxon mezonlari qo'llanildi. Sifat belgilaridagi farqning statistik ahamiyatini aniqlash uchun Yeytsni uzluksizlikka to'g'irlangan parametrik bo'lmagan  $\chi^2$  mezon va Fisherning aniq mezonining (kutilgan raqamlar 5 dan kam bo'lganda) ikki tomonlama varianti ishlatilgan.

## **2.8. Xulosa**

Yo'g'on ichak o'smasida jigar metastazlari bo'lgan bemorlar uchun faqat jarrohlik potentsial radikal davolash usuli bo'lganligi sababli, jigar rezeksiyasi uchun ko'rsatmalarni kengaytirish mumkin va zarur. Operatsiyadan oldingi tayyorgarlik sifatida portal venaning mexanik embolizatsiyasidan foydalanish, shuningdek, mahalliy ablatasuya usullari operatsiya qilinadigan bemorlarning ulushini oshirishga imkon beradi.

Metastatik tugunning bevosita o'sishi kuzatilganda, o'simta bilan bog'liq bo'lgan organlar va to'qimalarni - diafragma, buyrak usti bezi va paranebral to'qimalar, pastki kavak vena yoki portal venalar, jigardan tashqari o't yo'llarini rezeksiya qilishga harakat qilish lozimdir. Jigardan tashqari metastazlar (gepatoduodenal ligamentning limfa tugunlari, qorin parda, o'pka) bo'lsa, shartli ravishda bir bosqichli yoki ikki bosqichli (masalan, jigar rezeksiyasidan keyingi o'pka rezeksiyasi) radikal operatsiyalarni bajarish mumkin.

Ushbu bobning yakunida shuni ta'kidlash kerakki, kasallik o'choqlari hajmi va soni, birlamchi kasallanish joyida operatsiyadan keyingi paydo bo'lish vaqti, yo'g'on ichak o'smasistadiyasi va differentsiallanish darajasi, markerlar darajasi, bilobar shikastlanish, oldingi kimyoterapiya va uning samaradorligi va boshqa shu kabi prognostik omillarga qarab bemorlarni biror xil sun'iy tanlash amalga oshirilmadi.

Kasalxonaga yotqizish va keyingi jarrohlik davolashning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat edi: aniqlangan jarrohatlarni olib tashlashning texnik

imkoniyatlari va operatsiyaning funksional bardoshliligi onkologik nuqtai nazardan zarur bo'lgan darajada bo'lishi kabi. Shunday qilib, bo'limdagi taktikalar jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarga ixtisoslashtirilgan jarrohlik yordamini ko'rsatish imkoniyatining umumiy manzarasini aks ettiradi.

### **3 - BOB.**

## **JIGARDA YO‘G‘ON ICHAK SARATONI METASTAZLARI BO‘LGAN BEMORLARNI JARROHLIK VA KOMBINATSIYALANGAN USUL BILAN DAVOLASHNING BEVOSITA NATIJALARI**

### **3.1. Jigarda yo‘g‘on ichak saratoni metastazlari bo‘lgan bemorlarning davolash turiga va operatsiyadan keyingi kimyoterapiya rejimiga qarab xususiyatlari**

Jigarda yo‘g‘on ichak saratoni metastazlari bo‘lgan bemorlarning qiyosiy tavsifi (3.1-jadval) davolash - jarrohlik yoki kombinatsiyalangan (operatsiyadan keyingi kimyoterapiya bilan birgalikdagi jigar rezeksiyasi) turiga qarab amalga oshirildi. Yoshi, jinsi va asosiy o‘smanning joylashishiga qarab (to‘g‘ri ichak yoki yo‘g‘on ichak), bu guruhlarda sezilarli farqlar yo‘q edi. Jigarni rezeksiya qilish paytida metastatik jarayonning tarqalishida statistik jihatdan sezilarli farq yo‘q, ammo kombinatsiyalangan davolash guruhida jigarda qo‘shimcha manipulyatsiyalar sezilarli darajada ko‘proq (18,9% ga nisbatan 29,5%,  $p = 0,025$ ) amalga oshirildi (kontralateral qism rezeksiyasi, intraparenximal metastazlarning radiochastota ablatsiyasi, yuzaki o‘sma tugunlari kriodestruksiyasi, usullar kombinatsiyasi).

Operatsiyadan keyingi kimyoterapiya bilan og‘rigan bemorlar guruhida 126 bemorda (44%), rezeksiya chegarasidan o‘smacha bo‘lgan masofa 10 mm dan kam bo‘lgan, nazorat guruhida 13 holatda (9%), farq statistik jihatdan sezilarli  $p < 0,0001$ .

Ikki litrdan ortiq intraoperativ qon yo‘qotish jarrohlik davolash guruhida sezilarli darajada tez-tez uchraydi (12,3% ga nisbatan 25,9%  $p = 0,0007$ ), qon quyish chastotasi statistik jihatdan farq qilmagan,  $p = 0,07$ . Operatsiyadan keyingi kimyoterapiya bilan og‘rigan bemorlarda jigar rezeksiyasidan keyingi asoratlarda 24,6%, kimyoterapiyasiz - 19,6%, ammo farq ham to‘liq ishonchsizdir.

**Jarrohlik vakombinatsiyalashgan davolash guruhlardagi bemorlarning qiyosiy xususiyatlari**

Xarakteristika		Jarrohlik davolash N=143		Kombinatsiyalang an davolash N=285		p
		N	%	N	%	
O'rtacha yosh O'rtacha qiymat ± standart og'ish		55,6±10,8		56,3±9,7		>0,05
Jins	Erkak	71	49,7	138	48,4	>0,05
	Ayol	72	50,3	147	51,6	>0,05
Birlamchi o'sma lokalizatsiyasi	Yo'g'on	94	65,7	196	68,8	>0,05
	To'g'ri	49	34,3	89	31,2	>0,05
Sinxron aniqlangan metastazlar (M1)		61	42,7	112	39,3	>0,05
Operatsiya radikalizmi	Radikal	125	87,4	257	90,2	>0,05
	Palliativ	18	12,6	28	9,8	>0,05
Jigardan tashqari tarqalish	Qo'shni to'qimalarga tarqalganlik	13	9,1	28	9,8	>0,05
	Jigardan tashqari metastazlar	31	21,7	51	17,9	>0,05
Intrahepatik tarqalish	O'ng qism	77	53,9	134	47,1	>0,05
	Chap qism	25	17,5	48	16,8	>0,05
	Bilobar shikastlanish	41	28,7	103	36,1	0,1
	Solitar metastazlar	76	53,1	141	49,5	>0,05
	Yagona	38	26,6	73	25,6	>0,05
	Ko'plab metastazlar	29	20,3	71	24,9	>0,05
Eng katta metastaz hajmi 5 smdan katta		55	38,5	131	46	>0,05
Jigardagi operatsiya hajmi	Tejamkor rezeksiyalar	55	38,5	101	35,4	>0,05
	Gemigepaktomiyalar	70	49	134	47	>0,05
	Kengaytirilgan gemigepaktomiyalar	18	12,6	50	17,5	>0,05
	Qo'shimcha aralashuvlar	27	18,9	84	29,5	0,025
Rezeksiya chegarasigacha bo'lgan qism 1 smdan kam bo'lishi		13	9,1	126	44,2	<0,0001
Jigarning takroriy rezeksiyalari		15	10,5	28	9,8	>0,05
2000 ml dan ortiq qon yo'qotish		37	25,9	35	12,3	0,0007
Qizil qon hujayralarini quyish		49	34,3	71	24,9	0,07
Operatsiyadan keyingi asoratlar		28	19,6	70	24,6	>0,05



Shunday qilib, biz jarrohlik vakombinatsiyalangan davolash guruhlarini solishtirish mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin, asosiy xususiyatlarda sezilarli farqlar topilmadi, ammo operatsiyadan keyingi kimyoterapiya guruhida jigarda qo'shimcha manipulyatsiyalar ko'proq amalga oshirildi, bu operatsiya vaqtida metastatik jarayon ko'proq tarqalganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu bemorlarga o'smadan rezeksiya chegarasigacha bir santimetrdan kamroq masofada jigar rezeksiyasizilarli darajada ko'proq amalga oshirildi (noqulay prognostik omil).

Yo'g'on ichakning metastatik o'smasi bilan og'rikan bemorlarni kompleks davolashda operatsiyadan keyingi kimyoterapiya sxemasiga qarab bemorlarning qiyosiy tavsifi ham o'tkazildi. Guruhlar yoshi, jinsi, asosiy o'simtaning joylashuvi, metastazlarning aniqlanish vaqti, eng katta metastaz hajmi, intraoperativ qon yo'qotish miqdori va operatsiyadan keyingi asoratlarning chastotasi bo'yicha farq qilmadi (3.2-jadval). Ammo shuni ta'kidlash kerakki, oksaliplatinni qo'llash bilan operatsiyadan keyingi kimyoterapiyadan o'tgan bemorlar guruhida operatsiyalar kasallikning ko'proq tarqalishi yuzasidan sezilarli darajada tez-tez bajarilgan. Shunday qilib, jigarning ikkala bo'lagining shikastlanishi tashxisi 27,2% ga nisbatan 44,3% bemorlarga qo'yilgan,  $p=0,004$ , ko'plab metastazlar 16,2% ga nisbatan 32,9% bemorda aniqlangan,  $p=0,0018$ . Jarrohlik vaqtida ko'proq ekstrahepatik o'choqlar aniqlangan (8,1% ga nisbatan 20,1%,  $p=0,006$ ). Ushbu guruhda palliativ va takroriy jigar rezeksiyalarining chastotasi ham sezilarli darajada yuqori. Shunday qilib, FOLFOX sxemasi bo'yicha kimyoterapiya olgan bemorlarda noqulay prognostik omillar sezilarli darajada ko'proq aniqlandi. Buning sababi, operatsiyadan keyingi kimyoterapiya sifatida ushbu sxemaning joriy etilishi bo'limda jigar rezeksiyasi uchun ko'rsatmalarning kengayishi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. FOLFOX sxemasi bo'yicha operatsiyadan keyingi poliximioterapiya olgan bemorlar guruhida metastatik jarayonning ko'proq tarqalishi tez-tez aniqlanganligi sababli, bunday bemorlarda jigarga qo'shimcha aralashuvlar (20,6%, ga nisbatan 37,6%  $p = 0,0026$ ), gemigepatektomiya (39,7% ga nisbatan 53,7%,  $p=0,025$ ) ko'proq amalga oshirilgan. Bemorlarning ushbu guruhida

ekstrahepatik metastazlarni (jigar rezeksiyasidan tashqari) olib tashlash chastotasi ham yuqori.

### 3.2-jadval

#### Operatsiyadan keyingi kimyoterapiya turiga qarab kombinatsiyalangan davolash guruhidagi bemorlarning qiyosiy xususiyatlari

Xarakteristika		Jarrohlik davolash N=143		Kombinatsiyalangan davolash N=285		p
		N	%	N	%	
O'rtacha yosh O'rtacha qiymat ± standart og'ish		54.8±9.3		57.7±9.9		>0,05
Jins	Erkak	73	53.7	65	43.6	>0,05
	Ayol	63	46.3	84	56.4	>0,05
Birlamchi o'sma lokalizatsiyasi	Yo'g'on	89	65.4	107	71.8	>0,05
	To'g'ri	47	34.6	42	28.2	>0,05
Sinxron aniqlangan metastazlar (M1)		55	40.4	57	38.2	>0,05
Operatsiya radikalizmi	Radikal	132	97.0	125	83.9	>0,05
	Palliativ	4	3.0	24	16.1	0,0004
Jigardan tashqari tarqalish	Qo'shni to'qimalarga tarqalganlik	14	10.3	14	9.4	>0,05
	Jigardan tashqari metastazlar	11	8.1	30	20.1	0,006
Intrahepatik tarqalish	O'ng qism	68	50.0	66	44.3	>0,05
	Chap qism	31	22.8	17	11.4	0,016
	Bilobar shikastlanish	37	27.2	66	44.3	0,004
	Solitar metastazlar	81	59.6	60	40.3	0,0017
	Yagona	33	24.3	40	26.8	0,717
	Ko'plab metastazlar	22	16.2	49	32.9	0,0018
Eng katta metastaz hajmi 5 smdan katta		61	44.9	70	47.0	>0,05
Jigardagi operatsiya hajmi	Tejamkor rezeksiyalar	56	41.2	45	30.2	0,07
	Gemigepaktomiyalar	54	39.7	80	53.7	0,0248
	Kengaytirilgan gemigepaktomiyalar	26	19.1	24	16.1	>0,05
	Qo'shimcha aralashuvlar	28	20.6	56	37.6	0,0026
Rezeksiya chegarasigacha bo'lgan qism 1 smdan kam bo'lishi		60	44.1	66	44.3	>0,05
Jigarning takroriy rezeksiyalari		4	3.0	14	9.4	0,0462
2000 ml dan ortiq qon yo'qotish		18	13.2	17	11.4	>0,05
Qizil qon hujayralarini quyish		35	25.7	36	24.2	>0,05
Operatsiyadan keyingi asoratlar		28	20.6	42	28.2	0,1

### **3.2. Operatsiya hajmi va operatsiyadan oldingi kimyoterapiya mavjudligiga bog'liq bo'ladigan asoratlar**

Jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari doirasida jigarda jarrohlik aralashuvidan keyingi asoratlar 131 holatda (28,9%) aniqlangan, 16 kishi vafot etgan (3,5%). Eng tez-tez uchraydigan asorat - jigar yetishmovchiligi 46 bemorda (10,1%) rivojlangan, o'lim darajasi 1,3% (6 bemor)ni tashkil qildi. Asoratlarning chastotasi va tabiati aralashuv turiga bog'liq bo'lganligi sababli, jigarda yo'g'on ichak saratoni metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik davolashning bevosita natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar quyida keng ko'lamli (3.3-jadval) va tejamkor jigar rezeksiyasi guruhlarida alohida keltirilgan (3.4-jadval).

Jigarning keng va tejamkor jarrohligining bevosita natijalarini solishtirganda, birinchi guruhdagi asoratlarning yuqori chastotasini qayd etish lozim - 16,2% ga nisbatan 36,2% ( $p < 0,0001$ ) va mos ravishda o'lim ko'rsatkichi 0,6% ga nisbatan 4,5% ( $p = 0,0063$ ).), bu tabiiy ravishda operatsiyaning katta hajmi bilan izohlanadi. 3.3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, jigar yetishmovchiligi keng tarqalgan jigar rezeksiyasidan keyin eng ko'p uchraydigan asoratdir - 15% hollarda va aynan shu asorat operatsiyadan keyingi o'limga sabab bo'ladi (1,4%). Yuqorida ta'kidlanganidek, 13 nafar bemorga operatsiyadan oldingi tayyorgarlik sifatida portal venaning o'ng shoxchasi embolizatsiyasi o'tkazilgan va keyinchalik standart yoki kengaytirilgan variantdagi o'ng tomonlama gemigepatektomiya hajmida jigar rezeksiyasi o'tkazilgan. Bemorlarning ushbu guruhida jigar yetishmovchiligi yoki o'lim holatlari kuzatilmagan. Tejamkor rezeksiyalardan so'ng, 1,8% hollarda jigar yetishmovchiligi qayd etilgan.

Jigarning keng ko'lamli rezeksiyasi paytida safro suyuqligi va safro yo'llarining oqishi ikkinchi eng ko'p uchraydigan asoratlardandir - 29 bemorda kuzatildi (10,1%). Safro yo'llarining oqishi 1 oydan ortiq davom etganda, asorat safro oqmasi sifatida talqin qilinadi (18 bemor). Tejamkor rezeksiyalarda bu asorat nisbatan kamroq uchraydi (2,4%,  $p = 0,0012$ ), bu yara yuzasi sezilarli darajada kichikroq va shunga mos ravishda safro turg'unligini yaxshiroq nazorat qilish bilan bog'liq.

**Keng qamrovli rezeksiyalardan so'ng operatsiyadan keyingi  
asoratlarning tabiati va chastotasi (287 bemor)**

Asorat turi	Asoratlarning miqdori		O'lim holatlari	
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%
Jigar yetishmovchiligi	43	15.0	4	1.4
Jarrohlik sohasidagi xo'ppoz (abses)	14	4.9	0	-
Jarrohlik sohasida gematomaning shakllanishi	12	4.2	0	-
Safro yo'llari suyuqligi shakllanishi va safro oqishi	29	10.1	0	-
Operatsiyadan keyingi yaraning yiringlashi	11	3.8	0	-
Jarrohlik sohasida qon ketishi	4	1.4	2	0.7
O'tkir oshqozon-ichak trakti yaralaridan qon ketishi	4	1.4	1	0.35
Yo'g'on ichak anastomози layoqatsizligi, peritonit	2	0.7	1	0.35
Pnevmoniya	7	2.4	0	-
Jigar-buyrak yetishmovchiligi	3	1.0	1	0.35
Mexanik sariqlik	1	0.35	0	-
O'pka arteriyasi tromboemboliyasi	2	0.7	1	0.35
Miokard infarkti	1	0.35	1	0.35
O'tkir yurak yetishmovchiligi	1	0.35	1	0.35
Titroq aritmiya	1	0.35	0	-
Mezenteriya trombozi	1	0.35	1	0.35
Sepsis	9	3.1	0	-
Pankreatit	4	1.4	0	-
Jami	104	36.2	13	4.5

Jarrohlik paytida yoki undan keyingi ikkita o'lim operatsiya joyida qon ketishi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, keng qamrovli aralashuvlar guruhidagi bitta o'lim 1994 yilda gemigepatektomiya texnikasini ishlab chiqishdagipastki kovakvena devoridagi nuqsondan massiv intraoperativ qon ketishidan qayd etilgan. Yana bir bemor 2006 yilda kengaytirilgan o'ng tomonlama

gemigepatektomiyadan so'ng 5-kuni qon ketishidan vafot etdi. Ushbu qon ketishiningsababi - o'rta jigar venasining dumidagi nuqson, aftidan, ligaturaning sirpanishi va bu tomirdan ko'chishi natijasida yuzaga kelgan. Ushbu holatdan so'ng biz jigar venalarining dumlarini so'rilmaydigan atravmatik ip bilan tikamiz. Umuman olganda, jarrohlik sohasi(jigarning rezeksiya qilingan yuzasi, katta ekstrahepatik tomirlar)daoperatsiyadan keyingi massiv qon ketish ixtisoslashgan klinikalarda nisbatan kam uchraydi, ammo tezda o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy asorat va uni oldini olish uchun doimo barcha choralarni ko'rish lozim.

Operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning operatsiyadan keyingi davrga ta'siri ham tahlil qilindi. Kolorektal saraton metastazlari doirasida jigar rezeksiyasidan keyingi asoratlarning chastotasi operatsiyadan oldingi kimyoterapiya olgan (29,7%) va olmagan (28,6%) bemorlar guruhlarida bir xilda; shuningdek operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning jigar yetishmovchiligi kabi operatsiyadan keyingi asoratning rivojlanishiga ta'siri ham qayd etilmadi (3.5-jadval). Biroq, operatsiyadan oldingi kimyoterapiya olingan holatda ushbu asorattan o'lim sezilarli darajada yuqori (0,57% ga nisbatan 3,96%, p = 0,024).

### 3.4-jadval

#### Iqtisodiy rezeksiyalardan so'ng operatsiyadan keyingi asoratlarning tabiati va chastotasi (167 bemor)

Asorat turi	Asoratlar miqdori		O'lim holatlari	
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%
Jigar yetishmovchiligi	3	1.8	0	-
Jarrohlik sohasidagi xo'ppoz (abses)	5	3.0	0	-
Jarrohlik sohasida gematomaning shakllanishi	3	1.8	0	-
Safro yo'llari suyuqligi shakllanishi va safro oqishi	4	2.4	0	-
Operatsiyadan keyingi yaraning yiringlashi	5	3.0	0	-
Jarrohlik sohasida qon ketishi	1	0.6	0	-
Yo'g'on ichak anastomози	1	0.6	0	-

layoqatsizligi, peritonit				
Kovak organ perforatsiyasi, peritonit	1	0.6	0	
Pnevmoniya	3	1.8	1	0.6
Mexanik sariqlik	1	0.6	0	-
O'pka arteriyasi tromboemboliyasi	1	0.6	0	-
Miokard infarkti	2	1.2	0	-
Titroq aritmiya	1	0.6	0	-
Sepsis	3	1.8	0	-
Pankreatit	1	0.6	0	-
Jami	27	16.2	1	0.6

**3.5-jadval**

**Operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning jigar rezeksiyasidan keyin asoratlarning rivojlanishiga ta'siri**

Tavsif	Operatsiyadan oldin kimyoterapiya olgan bemorlar. N=101		Operatsiyadan oldin kimyoterapiya olmagan bemorlar N=353		p
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%	
Operatsiyadan keyingi asoratlar	30	29.7	101	28.6	>0.05
Jigar yetishmovchiligi	9	8.9	37	10.5	>0.05
O'lim holatlari	5	4.95	11	3.1	0.378
Jigar yetishmovchiligi sababli o'lim holatlari	4	3.96	2	0.57	0.024

Shunday qilib, operatsiyadan oldingi kimyoterapiya operatsiyadan keyingi davrda o'linga olib keladigan jigar yetishmovchiligining rivojlanish xavfini oshiradigan omil hisoblanadi. Birinchi guruhda umumiy o'lim darajasi ham yuqori - 3,1% ga nisbatan 4,95%, ammo farq sezilarli emas ( $p = 0,378$ ).

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, 31 bemorda, jigar rezeksiyasidan tashqari, metastazlarga mahalliy ta'sir qilish usullari - RChA va / yoki kriodestruksiyasi o'tkazildi. Operatsiyadan so'ng bitta bemor (3,2%) yo'g'on ichak anastomози layoqatsizligi tufayli peritonitdan vafot etdi. Ushbu bemor jigarda metastazlar bilan

sigmasimon ichak o'smasining qaytalanishi tufayli anastomozni ekstirpatsiya qilish bilan birga ichak traktining uzluksizligini tiklash, shuningdek, o'ng tomonlama gemigepatektomiya, oshqozon osti bezining distal rezektsiyasi, splenektomiya, jigarining uchinchi segmentida metastaz kriodestruksiyasi o'tkazilgandi.

Ushbu turdagi jarrohlik aralashuvidan keyingi asoratlarning bemorlarning 25,8 foizida rivojlandi, bu umumiy guruhdagi jigar rezektsiyasidan keyingi asoratlarning chastotasidan oshmaydi, quyida ularning tavsifi va chastotasi 3.6-jadvalda aks ettirilgan.

### 3.6-jadval

#### RChA va/yoki kriodestruksiya bilan birgalikda jigar rezektsiyasidan so'ng operatsiyadan keyingi asoratlarning tabiati va chastotasi (31 bemor)

Asorat turi	Asorat chastotasi	
	Absolyut qiymat	%
Jigar yetishmovchiligi	2	6.5
Jarrohlik sohasidagi xo'ppoz (abses)	2	6.5
Jarrohlik sohasida gematomaning shakllanishi	1	3.2
Safro yo'llari suyuqligi shakllanishi va safro oqishi	2	6.5
Operatsiyadan keyingi yaraning yiringlashi	2	6.5
Jarrohlik sohasida qon ketishi	1	3.2
Yo'g'on ichak anastomozni layoqatsizligi	1	3.2
Pnevmoniya	1	3.2
O'pka arteriyasi tromboemboliyasi	2	6.5
Sepsis	1	3.2
Pankreatit	1	3.2
Jami	8	25.8

### 3.3. Jigar rezektsiyasidan keyingi asoratlardagi aralashuvlar

Jigar rezektsiyasidan so'ng 45 bemorda (9,9%) jarrohlik asoratlarni bartaraf etish uchun manipulyatsiyalaramalga oshirildi (3.7-jadval). operatsiyadan keyingi asoratlarning rivojlanishi sabablaralashuvlar ko'proq kengaytirildan operatsiyalar guruhida amalga oshirildi (5,4% ga nisbatan 12,5%). Nisbatan eng ko'p bajarilgan muolajalar - minimal invaziv - patologik shakllanishlarni ponksiyon qilish va

drenajlash, drenajlarni tuzatish, teriorqali xolangiostomiya (kengaytirilgan rezeksiyalardan keyin 11,1% bemorda, tejamkorlar rezeksiyalardan keyin 4,8%) muolajalar bo'ldi. Obstruktiv sariqlik kabi teri-jigar oqali xolangiostomiyani tashkillashtirishni talab qiladigan asorat ikkita bemorda rivojlandi, biri kengaytirilganjigarrezektsiyasidan so'ng, ikkinchisi esa tejamkor rezektsiyadan keyin.

### 3.7-jadval

#### Jarrohlik asoratlarini tuzatish maqsadida operatsiyadan keyingi davrda amalga oshiriladigan aralashuvlarning chastotasi va turi

Aralashuv turi	Aralashuvlar chastotasi			
	Kengaytirilgan rezeksiyadan keyin N=287		Tejamkor rezeksiyadan keyin N=167	
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%
Tezkor operatsiyalar	4	1.4	1	0.6
Drenajlash	12	4.2	1	0.6
Ponksiyon qilish	7	2.4	2	1.2
Drenajlarni tuzatish	12	4.2	4	2.4
Teri-jigar oqali xolangiostomiya	1	0.3	1	0.6
Jami	36	12.5	9	5.4

Operatsiyadan keyingi davrda 5 ta shoshilinch operatsiya ham o'tkazildi - to'rttasi keng ko'lamli va bittasi tejamkor jigar rezektsiyasidan keyin. Bir bemorda mezenterik tromboz va ingichka ichakning bir bo'lagiga qon ta'minoti buzilishi tufayli relaparotomiya qo'llanildi; ichakning yaroqsiz segmentini rezektsiya qilish amalga oshirildi, ammo bemor natijada jigar yetishmovchiligidan vafot etdi. Bir bemorga operatsiyadan keyingi yaraning yiringlashi natijasida hosil bo'lgan eventratsiya tufayli shoshilinch jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Jigar rezektsiyasi sohasida qon ketishi ikki holatda relaparotomiyaga sabab bo'ldi. Bir bemorda qon ketish manbai aniqlab bo'lmadi, taxminan 1000 ml qon quyqalariva suyuq qon olib tashlandi. Boshqa holatda, gemorragik shokga olib kelgan katta qon ketishining sababi o'rta jigar venasining dumidagi nuqson bo'ldi.



Jigarning tejamkorrezektsiyasi(jigarning markaziy qismlariga sinxron metastazlar bilan ko‘richak saratoni yuzaisdan o‘ng tomonlama gemikolektomiya bilan bir vaqtda bisegmentektomiya IV-V) dan so‘ng ingichka ichakning perforatsiyasi tufayli bitta shoshilinch operatsiya o‘tkazildi. Operatsiyadan keyingi ikkinchi sutkada ichak tarkibi xavfsiz drenaj orqali oqib chiqa boshladi, epigastriumda og‘riq va mahalliy peritoneal simptomlar paydo bo‘ldi. Bemor tez tibbiy yordam bo‘limiga kovak“organ perforatsiyasi, peritonit” tashxisi bilan yotqizildi. Qorin bo‘shlig‘ini relaparotomiya va reviziya qilish paytida diffuz peritonit belgilari aniqlanmadi, ileotransvers anastomozdan 20 sm masofada, fibrin bilan qoplangan, diametri 2 mm gacha bo‘lgan perforativ teshik aniqlandi. Ingizchka va yo‘g‘on ichak anastomozida yaroqsizlik belgilari aniqlanmadi. Ingichka ichakning bir bo‘lagini rezektsiya qilish, qorin bo‘shlig‘ini sanatsiya va drenajlashga doir operatsiya o‘tkazildi.

### **3.4. Kimyoterapiyaning toksikligi**

Biz 5-ftorouratsil va leykovorin yordamida kimyoterapiyaning nojo‘ya ta‘sirini oksaliplatin qo‘shilgan holda va qo‘shmasdan o‘rganib chiqdik. Tahlilga yuqorida ko‘rsatilgan sxemalar bo‘yicha jigar rezektsiyasidan so‘ng operatsiyadan keyingi kimyoterapiya o‘tkazilgan, bajarilgan operatsiyaning radikalligi, jigardan tashqari metastazlar mavjudligi va jigarga aralashuv tartibidan (birlamchi yoki takroriy rezektsiya) qat‘iy nazar barcha bemorlar (285 bemor)kiritildi.

### **3.8-jadval**

#### **FOLFOX Kimyoterapiyasining toksikligi (149 bemor)**

Asorat yoki toksiklik turi	Asoratlar chastotasi			
	Barcha darajalar		III-IV daraja	
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%
Neyrotoksiklik	78	52.3	5	3.4
Gastrointestinal toksiklik	32	21.5	8	5.4
Gepatotoksiklik	23	15.4	1	0.7
Gematologik toksiklik	26	17.4	6	4.0
Yiringli-yallig‘lanishli asoratlar	6	4.0	3	2.0
O‘pka arteriyasi tromboemboliyasi	-	-	1	0.7
Jami	86	57.7	13	8.7

3.8-jadvalda FOLFOX rejimidan foydalangan holda operatsiyadan keyingi kimyoterapiya o'tkazilgan 149 bemorda nojo'ya ta'sirlar chastotasi ko'rsatilgan. 86 bemorda (57,7%) asoratlari rivojlandi, ammo ko'p hollarda ular yengil va vaqtinchalik edi. III-IV darajadagi toksiklik 13 bemorda (8,7%) aniqlandi. Nisbatan eng ko'p neyrotoksiklik - 78 bemorda (52,3%) kuzatildi, ammo faqat 5 tasi (3,4%) da III-IV darajaga yetdi. Bitta bemorda (0,7%) adyuvant kimyoterapiya kursidan so'ng, pastki ekstremitalarda paresteziya va sezuvchanlik yo'qligi bir yildan ortiq davom etdi, qolganlarda esa periferik neyropatiya simptomivaqtinchalik saqlanib qoldi. Oshqozon-ichak traktining toksikligi (asosan ko'ngil aynishi va qusish shaklida) ikkinchi eng keng tarqalgan asoratlardan bo'lib, uning III-IV darajali ko'rinishlari 8 bemorda (5,4%), shu bilan birga diareya 8 holatda (5,4%), uchinchi darajasi - bitta bemorda (0,7%) qayd etildi. Gepatotoksiklik 23 bemorda (15,4%) rivojlandi, biroq faqat bitta bemorda asorat III darajali (0,7%) bo'ldi. Konyugatsiyalanmagan giperbilirubinemiya bilan og'rikan ushbu bemor, jigar rezeksiyasidan oldin, ijobiy dinamika bilan to'g'ri ichak saratonning yakka metastazlari uchun oksaliplatin qo'shilgan 10 ta kimyoterapiya kursini olgan edi.

Gematologik toksiklik, birinchi navbatda neytropeniya va trombositopeniya 26 bemorda (17,4%), uchinchi darajasi - olti (4,0%) bemorda aniqlandi. Yiringliyallig'lanishli asoratlari oltita bemorda, uchta III-IV darajalari qayd etilgan.

Ftorouratsil/leykovorin sxemasi bo'yicha operatsiyadan keyingi kimyoterapiya o'tkazilgan bemorlar guruhida (n=136) 17 bemorda (12,5%) asoratlari rivojlangan, 6 bemorda (4,4%) III-IV darajali toksiklik qayd etilgan. Bir holatda (0,73%) o'pka arteriyasi shoxlarining tromboemboliyasi tufayli davolash to'xtatildi (3.8-jadval).

**5fu/leykovorin kimyoterapiyasining toksikligi (136 bemor)**

Kimyoterapiya toksikligi	Asoratlarning chastotasi			
	Barcha darajalar		III-IV daraja	
	Absolyut qiymat	%	Absolyut qiymat	%
Neyrotoksiklik	1	0.7	0	-
Gastrointestinal toksiklik	11	8.0	4	2.9
Gepatotoksiklik	2	1.4	1	0.7
Gematologik toksiklik	4	2.9	1	0.7
Yiringli-yallig'lanishli asoratlarning	5	3.7	1	0.7
O'pka arteriyasi tromboemboliyasi	-	-	1	0.7
Jami	17	12.5	6	4.4

Kimyoterapiya sxemasiga bog'liq holda toksik ta'sirlarning rivojlanish chastotasini taqqoslaganda, FOLFOX-6 ni qabul qilgan bemorlar guruhida sezilarli darajada ko'paygani qayd etildi ( $p < 0,0001$ ). Periferik neyropatiya va gematologik toksiklik sezilarli darajada ko'p aniqlandi. Oshqozon-ichak traktidagi nojo'ya ta'sirlar ham FOLFOX sxemasi bo'yicha kimyoterapiya olgan bemorlarda ustunlik qildi, shu bilan birga III darajali diareya ikkala guruhda ham bir xil darajada keng tarqalgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ham FOLFOX, ham FU/LV sxemalari bo'yicha olingan kimyoterapiya paytida yuzaga keladigan asoratlarning aksariyati tezda bartaraf qilindi va kimyoterapiya vaqtida o'lim holatlari qayd etilmadi.

To'rtta bemorda (2,7%) toksik ta'sirning rivojlanishi tufayli oksaliplatin yordamida operatsiyadan keyingi kimyoterapiya guruhida adyuvan davolashni davom ettirish rad etildi. Bir bemorda, ikkinchi kursdan so'ng, uzoq muddatli antibakterial terapiyani talab qilgan tizimli yallig'lanishning aniq klinik ko'rinishi rivojlanishi bilan xo'ppozga olib kelgan pnevmoniya aniqlandi. Boshqa ikkita bemorda og'ir gematologik toksiklik rivojlanishi sababli davolanish to'xtatildi. Yana boshqa bir bemorda kimyoterapiyaning ikkinchi kursidan keyin o'pka arteriyasining kichik shoxlari tromboemboliyasi yuzaga kelgani tufayli davolash to'xtatildi.

### 3.5. Xulosa

Ixtisoslashgan klinikada metastatik yo'g'on ichak saratoni doirasida jigar rezektsiyasi nisbatan xavfsiz protsedura sanalib, o'lim darajasi 3,5% ni tashkil qiladi. Keng qamrovli rezektsiyalar guruhida asoratlari va o'lim darajasi nisbatan yuqori. Eng ko'p uchraydigan asorat - bu jigar yetishmovchiligi, jigar rezektsiyasi sohasida o't yo'llari oqmalari, gematomalar va abscesslarning shakllanishi hisoblanadi. Jigar parenximasidan yoki jigardan tashqari katta tomirlar (pastki kavak vena, jigar venalarining anastomozlari) dan qon ketishi qisqa vaqt ichida o'limga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy asorat bo'lib qolmoqda.

Jigar rezektsiyasi bilan ablatsion usullarining kombinatsiyasi asoratlari sonini ko'paytirmaydi, shu bilan birga operativlikni oshirishga imkon beradi. Operatsiyadan oldin portal venaning o'ng shoximexanik embolizatsiya qilingan bemorlar guruhida jigar yetishmovchiligi bo'yicha birorta ham holat qayd etilmagan.

Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya o'tkazilgan holda operatsiyadan keyingi asoratlarning ko'payishi kuzatilmadi, ammo bu guruhda jigar yetishmovchiligidan o'lim holatlari sezilarli darajada yuqori bo'ldi.

FOLFOX sxemasi bo'yicha operatsiyadan keyingi kimyoterapiyadan o'tgan bemorlarda jigarning bilobar shikastlanishi, ko'plab metastazlar, o'smaning jigardan tashqari tarqalishi kabi noqulay prognostik omillar sezilarli darajada ko'proq aniqlandi va shunga mos ravishda, bunday bemorlarda katta hajmdagi jarrohlik amaliyotlari o'tkazildi.

Sxemaga oksaliptatin qo'shilishi bilan nojo'ya ta'sirlarning chastotasi ortadi, ammo FOLFOX sxemasi bo'yicha adyuvant kimyoterapiya, shu jumladan intraarterial kimyoterapiya jigar rezektsiyasidan keyin, aralashuv hajmidan qat'iy nazar, bemorlarda qo'llanilishi mumkin. Gepatotoksiklik 15,4% hollarda rivojlandi, bir bemorda III darajali rivojlandi. Eng ko'p uchraydigan asoratlari periferik neyropatiya (52%). Aksariyat asoratlari vaqtinchalik edi va ular bartaraf qilib borildi. Kimyoterapiya paytida o'limga olib keladigan holatlar qayd qilinmadi. Nojo'ya ta'sirlarning rivojlanishi tufayli beshta bemorda davolanish to'xtatildi (FOLFOX olgan guruhda to'rtta, 5FU/LV qabul qilgan guruhda bitta bemor). Klinik, laboratoriya va instrumental monitoring asoratlari o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, keyingi kurslarni rejalashtirishda dori dozalarini tartibga solish uchun muhimdir.

## 4 - BOB

### UZOQ MUDDATLI NATIJALAR

#### 4.1. Umumiy guruhdagi bemorlarning yashab ketishi

Ushbu tadqiqot ishining asosiy maqsadi jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni davolashda adyuvant kimyoterapiyaning rolini aniqlashdan iborat bo'lganligi sababli, biz asosiy va nazorat guruhlarida umumiy va qaytalanishsiz omon qolish ko'rsatkichini davolash samaradorligining asosiy mezoni sifatida tanlab oldik. Uzoq muddatli natijalar jigardayo'g'on ichak saratoni metastazlari bilan og'rigan 321 bemor (Ro rezeksiyasini amalga oshirishga muvaffaq bo'lingan, izolyatsiyalangan jigar shikastlanishi bo'lgan bemorlar) da o'rganildi. Intrahepatik tarqalishdan va yordamchi kimyoterapiya mavjudligidan qat'iy nazar, umumiy omon qolish ko'rsatkichlari 4.1-jadvalda ko'rsatilgan (tahlilga operatsiyadan keyingi asoratlar tufayli vafot etgan bemorlar ham kiritilgan)

#### 4.1-jadval

#### *Jigarning radikal rezeksiyasidan keyingi omon qolish darajasi (321 bemor)*

Umumiy omon qolish %					O'rtacha oylar
1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	15 yillik	
89.9±1.8	53.3±3.5	35.6±4.1	23.6±5.0	15.7±7.2	40

Quyida jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan (operatsiyadan keyingi kimyoterapiya bilan) davolash natijalari ko'rsatiladi va taqqoslanadi, shunday ekan operatsiyadan keyin vafot etgan bemorlarni taqqoslash guruhlariga kiritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz va shuning uchun bu bemorlar keyingi omon qolish tahlilidan chiqarildi (4.2-jadval). Shunday qilib, jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik yoki kombinatsiyalangan davolashda besh yillik omon qolish darajasi 37,1±4,3% (operatsiyadan keyingi davrda vafot etgan bemorlarni hisobga olgan holda - 35,6±4,1%), o'rtacha omon qolish darajasi 47 oy (mos ravishda 40 oy)ni tashkil qildi vabu adabiyot ma'lumotlariga zid emas. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu guruhga o'choqlarning soni va hajmidan, qo'shni tuzilmalar va organlarning infiltratsiyasining mavjudligidan, metastazlarning

rivojlanish vaqtidan va boshqa prognostik omillardan qat'i nazar, ekstrahepatik metastazlarsiz barcha radikal operatsiya qilingan bemorlar kiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu guruhga kasallik o'choqlarining soni va hajmidan, qo'shni tuzilmalar va organlarning infiltratsiyasining mavjudligidan, metastazlarning rivojlanish vaqtidan va boshqa prognostik omillardan qat'iy nazar, ekstrahepatik metastazlarsiz barcha radikal operatsiya qilingan bemorlar kirdi.

#### **4.2-jadval**

### **Radikal jarrohlikdan so'ng 308 bemorning umumiy omon qolish darajasi (operatsiyadan keyingi davrda o'lim holatlarisiz)**

Umumiy omon qolish %					O'rtacha oylar
1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	15 yillik	
93.8±1.5	53.3±3.5	55.6±3.6	24.6±5.2	16.4±7.5	47

4.3-jadvalda jinsga qarab bemorlarni davolashning uzoq muddatli natijalari keltirilgan. Ayollarda o'n besh yillik omon qolish darajasiga erishildi (57 yoshdagibir bemordajigarning sakkizinchi va to'rtinchi segmentlarida sigmasimon ichak o'smasining yagona metastazlari aniqlanib olib tashlangan bo'lib, 15 yilgacha yashagan). O'rtacha umr ko'rish davomiyligi. erkaklarda biroz yuqoriroq, ammo farq statistik ahamiyatga ega emas ( $p = 0,87$ ). Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bu xususiyatga qarab omon qolishda hech qanday farq yo'q va shuning uchun barcha keyingi hisob-kitoblar jinsdan qat'iy nazar amalga oshirildi.

#### **4.3-jadval**

### **Jinsning omon qolishga ta'siri (308 bemor)**

Jins	Umumiy omon qolish %				
	3 yillik	5 yillik	10 yillik	15 yillik	Mediana oylar
Erkak	56.4±4.9	37.3±6.1	24.8±7.3	0	48
Ayol	54.9±5.3	36.4±6.0	23.7±7.4	11.9±9.2	44
Erkaklar – 160 ta bemor, ayollar – 148 ta bemor					

Quyida bemorlarning yoshiga qarab uzoq muddatli davolanish natijalari keltirilgan. Bizning bo'limda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan 30 yoshgacha bo'lgan atigi sakkiz nafar bemor operatsiya qilingan bo'lib, bir nafari esa noradikal operatsiya qilinganligi sababli (uzoq muddatli omon qolishni

o'rganish guruhiga kiritilmagan), omon qolish kata xato bilan hisoblangan, mediana 48 oyga yetgan. Umuman olganda, prognozning qulay deb tan olish lozim, ammo aynan shu guruhda kasallikning keng tarqalishi qayd qilingan edi - faqatgina bir bemorda sigmasimon ichak rezektsiyasidan olti oy o'tgach jigarda metastazlar aniqlandi, ammo shu bilan birga mintaqaviy limfa tugunlarimetastazlari mavjud edi. Ushbu guruhning qolgan bemorlarida jigar metastazlari birlamchi o'choq bilan sinxron ravishda aniqlandi, 75% bemorda parakolitik limfa tugunlari kasallanishi qayd qilindi.

Eng yaxshi uzoq muddatli natijalar 30-49 yosh oralig'idagi bemorlar guruhida erishildi, besh yillik omon qolish darajasi  $46,0 \pm 8,1\%$ ni, o'rtacha 53 oyni tashkil qildi. 60 yoshdan oshgan bemorlar guruhidagilarko'pinchahamroh keladigan patologiyadan aziyat chekishardi, shu uchun biz bunday bemorlarda uzoq muddatli natijalarni biroz salbiyroq keltirishga majburmiz (besh yillik omon qolish darajasi  $34,4 \pm 8,0\%$ , o'rtacha 32 oy). Biroq, sezilarli farq qayd etilmadi (4.4-jadval).

#### 4.4-jadval


#### Omon qolish darajasining yoshga qarab taqsimlanishi (308 bemor)

Yosh	Bemorlar soni	Umumiy omon qolish %				O'rtacha oylar
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	
<30	7	100.0	$53.3 \pm 24.8$	$22.6 \pm 18.3$	0	48
30-49	71	$94.7 \pm 3.0$	$56.1 \pm 7.5$	$46.0 \pm 8.1$	$35.4 \pm 10.6$	53
50-59	142	$94.0 \pm 2.2$	$59.8 \pm 5.2$	$37.9 \pm 6.2$	$24.1 \pm 6.9$	48
$\geq 60$	88	$92.5 \pm 2.9$	$49.7 \pm 6.9$	$34.4 \pm 8.0$	$25.8 \pm 9.6$	32

#### 4.2. Davolanish turiga ko'ra uzoq muddatli natijalar

Jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni kompleks davolash nuqtai nazaridan yordamchi kimyoterapiya kafedrada 1997 yildan beri qo'llanila boshlangan. 4.5-jadvalda jarrohlik va kombinatsiyalangan (operatsiyadan keyingi kimyoterapiya bilan) davolashning uzoq muddatli natijalari keltirilgan. Asosiy guruhga operatsiyadan keyingi davrda FU/LVsxemasi (5-ftorurasil, leykovorin - 111 bemor) yoki FOLFOXsxemasi (5-ftorurasil, leykovorin, oksaliplatin - 101 bemor) bo'yicha kamida 3 ta kimyoterapiya kursini

olgan 212 bemor kirdi. Boshqa xildagi kimyoterapiya olgan bemorlar tahlildan chiqarildi. Shuningdek jigarda takroriy jarrohlik amaliyotini o'tkazgan bemorlar, jigardan tashqari metastazlari mavjud bo'lganlar yoki "radikal bo'lmagan" rezektsiya (R1-2) bo'lgan bemorlar ham chiqarib tashlandi. Olingan natijalar jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni jarrohlik davolash bilan solishtirganda kompleks davolashdan foydalanish afzalligini tasdiqli ravishda ko'rsatadi. Adyuvant davolash qo'llangan bemorlar guruhida besh yillik omon qolish va o'rtacha umr ko'rish mos ravishda  $42,6 \pm 5,7\%$  va 54 oyni, kuzatuv guruhida -  $25,5 \pm 6,1\%$  va 26 oyni tashkil qildi. Omon qolishdagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ( $p=0,012$ ). Biz o'n besh yillik omon qolish darajasini ko'rsatmadik, chunki biz jigar rezektsiyasidan keyin operatsiyadan keyingi kimyoterapiyadan faqat 11 yil foydalanamiz, garchi jarrohlik davolash guruhida bu mavjud va  $18,6 \pm 6,1\%$  ni tashkil qiladi.




#### 4.2-rasm. Yordamchi kimyoterapiya sxemasi turigako'ra sinxron metastazlar mavjudligi sharoitida omon qolish darajasi

Shuni ta'kidlash kerakki, operatsiyadan keyingi kimyoterapiya sxemasidan qat'iy nazar, jigarda yo'g'on ichak o'smasining sinxron metastazlari bo'lgan bemorlarni kompleks davolashning ijobiy natijalari, ayniqsa FOLFOX sxemasi bo'yicha kimyoterapiya olgan bemorlar guruhida omon qolish darajasining statistik jihatdan sezilarli ( $p = 0,031$ ) ortishi diqqatga sazovordir.



Jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasi metastazlari bo‘lgan bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan davolashning uzoq muddatli natijalari metastazlar soniga ko‘ra keltirilgan (4.3-rasm).



	1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	Mediana
<b>Solitar m.</b>	<b>93,9</b>	<b>58,1</b>	<b>42,9</b>	<b>28,8</b>	<b>50</b>
<b>Yagona m.</b>	<b>95,5</b>	<b>57</b>	<b>36,5</b>	<b>25,5</b>	<b>48</b>
<b>Ko'plab m.</b>	<b>91,8</b>	<b>49,8</b>	<b>18,7</b>	<b>0</b>	<b>27</b>

#### 4.3-rasm. Metastazlar soniga ko‘ra bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan holda davolashning uzoq muddatli natijalari

Solitar metastazlar (166 bemor) bilan eng yaxshi natijalarga erishildi: 5 yillik omon qolish  $42,9 \pm 5,1\%$  ni tashkil etdi, mediana 50,0 oyga etdi. Shuni ta'kidlash kerakki, guruhga kichik solitar tugunlari (10 sm gacha) va qo‘shni tuzilmalarga ham tarqalgan katta metastazi bo‘lgan bemorlar kiritilgan.

Yagona metastazlar (77 bemor) bilan besh yillik omon qolish darajasi biroz yomonroq -  $36,5 \pm 8,2\%$  (farqstatistik ahamiyatga ega emas,  $p = 0,43$ ), mediana deyarli bir xil - 48,0 oy. Har ikki guruhdagi o‘n yillik omon qolish ko‘rsatkichlari solishtirish mumkin: mos ravishda  $28,8 \pm 6,4\%$  va  $25,5 \pm 8,8\%$ . Shu bilan birga, ko‘p metastazli bemorlar (65 bemor) guruhida o‘rtacha omon qolish avvalgi guruhlarga qaraganda ikki baravar past - 27,0 oy; faqat ikkita bemor besh yil yashagan (shuning uchun 5 yillik omon qolish darajasi katta xato bilan berilgan -  $18,7 \pm 14,6\%$ ), o‘n yillik omon qolish darajasi yo‘q. Shunday qilib, jigardagi metastazlarning soni adabiyot ma‘lumotlariga ham mos keladigan muhim prognostik omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, quyida metastazlar soniga qarab jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasi metastazlari bo‘lgan bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan davolashning uzoq muddatli natijalarini tahlil qilish natijalari ko‘rsatilgan.

#### **4.4. Solitar metastazli bemorlar guruhidagi omon qolish darajasi**

Jigarda yo‘g‘on ichak saratonining solitar metastazlari bo‘lgan 166 nafar bemorni jarrohlik va kombinatsiyalangan davolash natijalari - jigar rezeksiyasi darajasi, yordamchi kimyoterapiya mavjudligi kabi bir qator omillarga qarab baholandi (4.7-jadval).

Operatsiya turi- gemigepatektomiya yoki tejamkorrezeksiyaekanligiga qarab statistik jihatdan ahamiyatli farq yo‘q edi. Shuni ta’kidlash kerakki, keng qamrovli aralashuvlar ko‘pincha tejamkorrezeksiyani amalga oshirishning iloji bo‘lmaganda, ya’ni jigarning keng tarqalgan o‘smali shikastlanishlari bo‘lganda amalga oshirildi. Biroq, so‘nggi paytlarda biz prinsipial sabablarga ko‘ra keng ko‘lamli rezeksiyalarni amalga oshirmoqdamiz, ya’ni biz nafaqat aniqlangan o‘simta to‘qimasini, balki uning ehtimoliy tarqalish yo‘llarini ham (jigar parenximasi, qon tomir-sekretor oyoqchasi, zararlangan tomondagi drenaj tizimini) olib tashlamoqdamiz.


#### **4.7-jadval.**

#### **Jarrohlik amaliyoti hajmi va yordamchi kimyoterapiya mavjudligiga qarab solitar metastazli bemorlarning omon qolish darajasi.**

Jarrohlik aralashuvi turi, solitary metastazlar sharoitida kimyoterapiya mavjudligi	p	Bemorlar soni	Umumiy omon qolish % da			Mediana oylar
			3 yillik	5 yillik	10 yillik	
Tejamkor rezeksiyalar	0.89	74	56.6±6.6	49.7±6.9	37.3±9.4	48.0
Gemigepaktomiyalar (kengaytirilmagan)		79	65.6±6.7	42.2±8.0	23.9±9.6	53.0
Kimyoterapiyasiz	0.0017	51	37.5±7.7	28.6±7.4	19.6±7.3	27.0
Kimyoterapiya bilan		110	67.0±5.5	49.2±6.7	33.2±9.6	60.0

Jigarda solitar yo‘g‘on uchak o‘smasi metastazlari bo‘lgan bemorlar guruhida (110 bemor) operatsiyadan keyingi kimyoterapiya qo‘llanilganda, omon qolish darajasi yuqori bo‘ldi, o‘rtacha umr ko‘rish 60 oyga etdi (adjuvant kimyoterapiyadan foydalanmagandagi 27 oyga nisbatan). Farq statistik jihatdan ahamiyatli ( $p=0,0017$ ). Yo‘g‘on ichak o‘smasidoirasida jigarda solitar metastazlar bo‘lgan beshta bemor ular irinotekan yoki raltitreksed bilan kimyoterapiya olganligi sababli tahlildan chiqarildi.

Operatsiyadan keyingi profilaktik kimyoterapiya sxemasining jigarda yo‘g‘on ichak saratoni solitar metastazlari bo‘lgan bemorlarni uzoq muddatli kompleks davolash natijalariga ta'siri o‘rganildi. Kimyoterapiya sxemasiga qarab umumiy omon qolishda farq topilmadi ( $p = 0,67$ ), FOLFOX olgan bemorlar guruhidamedianaga erishilmadi, nazorat guruhida (5FU/LV) bu 54 oyni tashkil etdi (4.4-rasm).




**4.4-rasm. Solitar metastazlar mavjud bo‘lganda, operatsiyadan keyingi kimyoterapiya sxemasiga ko‘raomon qolish darajasi.**

Shuni ta'kidlash kerakki, solitar metastazli tejamkor rezeksiyalar amalga oshirilgan va oksaliplatin yordamida kimyoterapiya olgan bemorlar guruhidagi barcha 16 bemor hozirda tirik (maksimal kuzatuv muddati 42 oy) va 5-ftorurasilni

adjuvant sharoitda olgan (32 bemor) yoki operatsiyadan keyingi kimyoterapiyasiz davolangan (24 bemor) guruhi bilan taqqoslash imkonsiz.

Keng qamrovli rezeksiyao'tkazilgan holatda (4.5-rasm) 3 yillik omon qolish darajasi oksaliplatin guruhida biroz yuqoriroq (5-ftorurasil guruhidagi  $71,8 \pm 9,2\%$  ga nisbatan  $79,5 \pm 13,1\%$ ). Kimyoterapiyasiz guruhda uch yillik omon qolish darajasi  $52,3 \pm 11,9\%$  ni tashkil etdi. Asosiy guruhda medianaga erishilmadi, nazorat guruhida - 54 oy, kimyoterapiyasiz davolashda 50 oyni tashkil qildi. Kimyoterapiya turiga ko'ra omon qolishdagi farq sezilarli emas,  $p = 0,32$ .




**4.5-rasm.** Solitar metastazli bemorlarning va kimyoterapiyasxemasi va mavjudligigako'ra keng ko'lamli rezeksiyalardan keyingi omon qolish darajasi.

Solitar metastazlari bo'lgan bemorlarning omon qolishini keng qamrovli aralashuvlar guruhidagi aralashuv turiga ko'ra solishtirganda, o'smaning jigar ichidagi tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan bemorlarda prognozning yomonligi sababli juda keng qamrovli jigar rezeksiyasini (kengaytirilgan hemigepitektomiya) talab qiladigan 13 bemor tahlildan chiqarildi, shuningdek ushbu

bemorlarda o‘simtadan rezeksiya chegarasigacha lozim bo‘lgan bir santimetr masofani saqlab turish texnik jihatdan imkonsiz edi.

4.6-rasmda jigarda 10 sm gacha bo‘lgan yo‘g‘on ichak o‘smasining solitar metastazlari bo‘lgan bemorlarni (127 bemor) jigarda jarrohlik aralashuvining darajasiga - tejamkor rezeksiya yoki gemigeptektomiya bo‘lganligiga ko‘radavolash natijalari ko‘rsatilgan. Ushbu sun‘iy bo‘linish majburiy keng ko‘lamli rezeksiya qilingan bemorlarni statistik tahlildan iloji boricha chiqarib tashlash uchun amalga oshirildi; bunday bemorlarning prognozi preklinik metastazlarning mavjudligi bilan belgilanadi.



**4.6-rasm.** Jigar rezeksiyasi darajasiga qarab, jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasining 10 sm gacha solitar metastazlari bo‘lgan bemorlarning omon qolish darajasi.

Keng qamrovli rezeksiya (61 bemor) amalga oshirilganda, besh va o‘n yillik omon qolish darajasi  $52,8 \pm 9,6\%$  va  $42,7 \pm 10,1\%$  ni tashkil etdi, mediana 50 oyga yetdi. 10 sm dan kichik bo‘lgan solitar metastazlar (66 bemor) yuzasidan tejamkor rezeksiyalar guruhida besh va o‘n yillik omon qolish darajasi mos ravishda  $49,8 \pm 6,9\%$  va  $37,3 \pm 9,4\%$  ni tashkil etdi, mediana esa 38 oyni.

Medianadagi farq sezilarli, ammo omon qolishning statistik jihatdan ahamiyatli farqiga erishilmadi ( $p=0,32$ ).

Operatsiyadan keyingi kimyoterapiya mavjudligiga ko'ra, ushbu guruh bemorlarining omon qolish darajasi quyida ko'rsatilgan (4.8-jadval). Kimyoterapiya mavjudligiga ko'ra, jigarning keng rezeksiyasi o'tkazilgan bemorlar guruhida omon qolishda statistik jihatdan sezilarli farq qo'lga kiritilmadi ( $p=0,62$ ). Aksincha, tejamkorrezeksiyalardan so'ng besh yillik omon qolish jarrohlik davolashdagi 25,0% ga qaraganda kombinatsiyalangan davolanishda nisbatan yuqori 63,1%, ushbu guruhdagimedia ko'rsatkichi ham yuqori, farq sezilarli ( $p = 0,01$ ).

#### **4.8-jadval.**

### **Jarrohlik amaliyoti hajmi va kimyoterapiya mavjudligiga ko'ra 10 sm dan kichiksoltar metastazli bemorlarning omon qolish darajasi**

Aralashuv turi	Bemorlar soni	p	Omon qolish darajasi			Mediana, oylar
			3 yillik	5 yillik	10 yillik	
Gemigepaktomiya* KTsiz**	18	0.62	65.2±14.6	39.1±16.8	39.1±16.8	53.0
Gemigepaktomiya KT bilan	43		85.5±6.8	52.9±12.4	44.1±13.1	63.0
Tejamkor rezeksiyalar KT siz	21	0.012	30.0±10.0	25.0±3.5	25.0±3.5	22.0
Tejamkor rezeksiyalar KT bilan	45		70.9±7.9	63.7±8.5	36.4±16.6	87.0

\*Kengaytirilgan hemigepaktomiyalar bundan mustasno, \*\*KT - kimyoterapiya

#### **4.5. Yagona metastazli bemorlar guruhida omon qolish darajasi**

4.9-jadvalda operatsiya hajmi va yordamchi kimyoterapiya mavjudligiga ko'ra yo'g'on ichak o'smasining yagona metastazlari doirasida jigar rezeksiyasidan o'tkazilgan bemorlar guruhida (77 kishi) uzoq muddatli omon qolish natijalari ko'rsatilgan. 51 ta kengaytirilgan jigar rezeksiyasi amalga oshirildi, ulardan 41 tasi standart gemigepatektomiya (yuqorida keltirilgan

sabablarga ko'ra jigarni o'ta keng rezeksiya qilishni talab qilgan 10 bemor tahlildan chiqarildi) va 26 ta tejamkor rezeksiya bo'ldi. Iqtisodiy rezeksiyalar bilan solishtirganda, gemigepatektomiyalarni amalga oshirishda uch, besh va o'n yillik omon qolish darajasining yaxshilanishi kuzatildi, ammo farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ( $p = 0,74$ ), mediana esa har ikkala guruhda ham 50 oyni tashkil qildi. Keng qamrovli rezeksiyalar guruhida qo'shimcha davolash uzoq muddatli natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi: kimyoterapiya (26 bemor) va kimyoterapiyasiz (15 bemor) guruhda besh yillik omon qolish darajasi mos ravishda 41% va 43% ni, o'rtacha umr ko'rish 49,0 va 51,0 oyni tashkil etdi ( $p = 0,82$ ).


#### 4.9-jadval

### Jigarda yo'g'on ichak o'smasining yagona metastazlari bo'lgan bemorlar guruhida omon qolish darajasi

Aralashuv turi, Kimyoterapiya mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi				Mediana, oylar
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	
Tejamkor rezeksiyalar	26	92.0±5.4	56.6±10.4	36.8±11.6	24.6±12.7	50.0
Gemigepaktomiya	41	97.4±2.6	62.4±10.9	46.6±11.0	41.6±14.0	50.0
Tejamkor rezeksiyalar kimyoterapiya bilan	18	93.8±6.1	74.5±11.0	47.9±14.4	31.9±16.2	57.0
Tejamkor rezeksiyalar, kimyoterapiyasiz	8	87.5±9.1	15.0±13.8	0	0	26.0

Tejamkorrezeksiyalar holatida, kimyoterapiya uzoq muddatli natijalarni sezilarli darajada oshirdi: kimyoterapiyasiz guruhda hech kim besh yil yashay olmadi (8 bemor), mediana 26,0 oyni, adyuvant davolash amalga oshirilganda (18 bemor) besh va o'n yillik omon qolish darajasi mos ravishda 47,9±14,4% va 31,9±16,2% ga yetdi, mediana 57,0 oyni tashkil etdi. Farq statistik jihatdan sezilarli ( $p=0,007$ ).

Bundan tashqari, jigarda yagona metastazli yo‘g‘on ichak o‘smasi bilan og‘rigan bemorlarni kompleks davolashning uzoq muddatli natijalari yordamchi kimyoterapiya rejimiga ko‘ra keltirilgan (4.7-rasm). Oksaliplatin operatsiyadan keyingi kimyoterapiya sifatida qo‘llanilganda, standart kimyoterapiya bilan solishtirganda umumiy uch yillik omon qolish darajasini  $60,7 \pm 9,7\%$  dan  $72,4 \pm 13,2$  gacha oshirish mumkin edi, ammo farq statistik jihatdan ahamiyatsiz ( $p = 0,178$ ), asosiy guruhda medianaga erishilmadi, oksaliplatinsiz nazorat guruhida u 48 oyga yetdi.




**4.7-rasm.** Yo‘g‘on ichak o‘smasining yagona jigar metastazlari bo‘lgan bemorlarning adyuvant kimyoterapiya sxemasigako‘ra omon qolish ko‘rsatkichlari.

Solitar metastazli bemorlar guruhida bo‘lgani kabi, kichik metastazlar doirasida keng yoki tejamkor jigar rezeksiyasidan o‘tgan bemorlarning omon qolishi alohida o‘rganildi (4.8-rasm). Eng katta metastazning o‘lchami 5 santimetrgacha bo‘lgan holda, besh va o‘n yillik omon qolish ko‘rsatkichlari keng ko‘lamli rezeksiyalar (29 bemor) guruhida  $73,8 \pm 13,8\%$  va  $46,2 \pm 16,3\%$  va



tejamkorrezeksiyalar (21 bemor)guruhida  $47,1\pm 14,5\%$  va  $20,8\pm 16,4\%$  ni tashkil etdi, o‘rtacha omon qolish mos ravishda  $67,0\pm 25,6$  va  $57,0\pm 20,2$  oyga etdi. Biroq, omon qolishda sezilarli statistik farqqa erishilmadi ( $p = 0,41$ ).



5 sm gacha bo‘lgan yagona metastazli bemorlarning omon qolish darajasi rezeksiya darajasi va kimyoterapiya mavjudligiga qarab quyida ko‘rsatilgan. Tejamkorrezeksiyalar guruhida jarrohlik davolash bilan besh yoki o‘n yillik omon qolish darajasi yo‘qligi ahamiyatlidir.

Keng jigarrezeksiyasi amalga oshirilgan bemorlar guruhida operatsiyadan keyingi kimyoterapiya qo‘llanilganda uch yillik omon qolish darajasi 72,7% ni, jarrohlik davolashda esa 59,3% ga yetdi, medianalar mos ravishda 69 va 50 oyni tashkil etdi. Kombinatsiyalangan davosh amalga oshirilganda besh yillik omon qolish darajasi 48,5% ni tashkil etdi; jarrohlik yondashuv bilan besh yillik aktorial omon qolish darajasi 32,3% ga etdi. Biroq shunga qaramay, omon qolishdagi farq sezilarli emas,  $p = 0,133$ .

**Jigarda yagona metastazli 5 sm dan kichikyo‘g‘on ichak o‘smasi bilan  
og‘rigan bemorlarning operatsiya hajmi va kimyoterapiya mavjudligiga ko‘ra  
omon qolish darajasi**

Aralashuv turi, Kimyoterapiya mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi				Mediana, oylar
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	10 yillik	
Kengaytirilgan rezeksiyalar, kimyoterapiyasiz	10	88.9±10.5	59.3±18.5	32.3±20.2	0	50.0
Kengaytirilgan rezeksiyalar, kimyoterapiya bilan	19	100.0	72.7±17.7	48.5±23.0	48.5±23.0	69.0
Tejamkor rezeksiyalar, kimyoterapiyasiz	6	66.7±19.2	16.7±15.2	0	0	26.0
Tejamkor rezeksiyalar, kimyoterapiya bilan	15	100.0	69.2±12.8	40.4±14.9	20.2±16.1	57.0

Tejamkor rezeksiyalar guruhida adyuvant kimyoterapiyasiz uch yillik omon qolish darajasi 16,7% ni tashkil etdi, mediana 26 oyga yetdi; kombinatsiyalangan davolashda uch, besh va o‘n yillik omon qolish darajasi 69,2%, 40,4% va 20,2% ga yetdi , mediana esa 57 oyni tashkil etdi (farq sezilarli;  $p = 0,0074$ ).

**4.6. Ko‘p metastazli bemorlar guruhida omon qolish darajasi**

Jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasining ko‘p metastazlari bo‘lgan bemorlarni jarrohlik va kombinatsiyalangan davolashning uzoq muddatli natijalari tahlili o‘tkazildi, bu guruhda o‘n yillik omon qolish ko‘rsatkichi yo‘q. Faqatgina ikkita bemor besh yil yoki undan ko‘proq yashay oldi, shuning uchun besh yillik omon qolish darajasi (u mavjud bo‘lgan kichik guruhlarda) katta xato bilan taqdim etiladi. Aynan shu sababga ko‘ra, ko‘plab unilobarva bilobar metastazlar o‘rtasidagistatistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ( $p = 0,56$ ): jigarda

uchtadan ortiq metastazlar mavjudligining o‘zi ba’zi klinikalarda yomon prognostik omil sanalib, mazkur holat jigar rezeksiyasiga qarshi ko‘rsatma hisoblanadi.


Keng qamrovli rezeksiyalar doirasidatejamkor rezeksiyalardagiga qaraganda yaxshiroq natijalar qabul qilindi, ammo farq unchalik sezilarli emas ( $p=0,7869$ ). Biroq, bizning klinikamizda, agar lozim bo‘lsa, kengaytirilgan variantdashikastlanishning katta tomonida keng qamrovli rezeksiyani amalga oshirishga intilamiz. Agar standart yoki kengaytirilgan versiyada gemigepatektomiyadan so‘ng kontralateral sohadametastazlar qolsa, biz jigarni tejamkorrezeksiya qilamiz yoki o‘simta tugunlarinimahalliy ablyatsiya usullari-RChA, kriyodestruktsiyaniqo‘llaymiz. Bunday yondashuv bilan (keng rezeksiyalar amalga oshirilganda), besh yillik omon qolish darajasi 19,9% ga erishildi, mediana 48 oyga yetdi. Tejamkorrezeksiyalar guruhida (14 bemor) besh yillik omon qolish yo‘q edi, uch yillik omon qolish 34,3% ni tashkil etdi (kengaytirilgan rezeksiyalar guruhida uch yillik omon qolish 53,1%), mediana 30 oyga yetdi. Jigarda yo‘g‘on ichak o‘smasining ko‘p metastazlari bo‘lgan bemorlarni davolashning uzoq muddatli natijalari 4.11 - jadvalda batafsilroq ko‘rsatilgan.

### ***Ko‘p metastazli bemorlarning omon qolish darajasi***

Aralashuv turi, Kimyoterapiya mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi			Mediana
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	
Unilobar shikastlanish	16	91.6±8.0	40.7±15.6	0	27
Bilobar shikastlanish	49	89.4±5.0	52.3±10.1	19.6±15.5	48
Kengaytirilgan rezeksiya	51	89.9±5.5	53.1±9.1	19.9±15.6	48
Tejamkor rezeksiya	14	100	34.3±16.0	0	30
Kimyoterapiya bilan	50	97.3±2.7	51.1±10.0	19.2±15.1	48
Kimyoterapiyasiz	11	52.5±20.4	17.5±15.8	0	14

Prognostik jihatdan noxushboʻlgan bemorlarning ushbu guruhida operatsiyadan keyingi kimyoterapiya uzoq muddatli natijalarni sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi ( $p < 0,0001$ ). Jigardakoʻp metastazi mavjud bemorlarni kombinatsiyalangan davolash bilan bir, uch, besh yillik omon qolish darajasi 97,3%, 51,1% va 19,2%ga, mediana 48 oyga yetdi. Jarrohlik bilan davolangan bemorlar guruhida besh yillik omon qolish darajasi qayd qilinmadi; bir va uch yillik omon qolish darajasi 52,5% va 17,5%, mediana 14 oyni tashkil qildi.

Quyida (4.9-rasm) jigarda yoʻgʻon ichak oʻsmasining koʻplab metastazlari boʻlgan bemorlarni kombinatsiyalangan davolashda uzoq muddatli natijalariga adyuvant kimyoterapiya sxemasining taʼsiri koʻrsatilgan. Yordamchi kimyoterapiya sifatida FOLFOX sxemasidan foydalanish (33 bemor) 5-ftorurasil/leykovorin (17 bemor) sxemasi bilan solishtirganda 3 yillik omon qolish koʻrsatkichini  $44,0 \pm 13,3\%$  dan  $56,8 \pm 15,2\%$  ga yaxshiladi, ammo farq unchalik katta emas ( $p=0,3$ ), asosiy guruhda medianaga erishilmadi, nazorat guruhida mediana 27 oyni tashkil qildi.



**4.9-rasm.** Jigarda yoʻgʻon ichak oʻsmasining koʻplab metastazlari boʻlgan bemorlarni kombinatsiyalangan davolashning adyuvant kimyoterapiya turiga koʻra uzoq muddatli natijalari.

#### 4.7. Qon yo‘qotish hajmiga ko‘ra uzoq muddatli natijalar

Jigar rezeksiyasi paytida qon yo‘qotish miqdori muhim prognostik omil hisoblanadi. Quyida ushbu alomatga qarab jarrohlik vakombinatsiyalangan davolashning uzoq muddatli natijalari keltirilgan (4.12-jadval). Shuni ta'kidlash kerakki, 1000 ml dan ortiq bo‘lmagan qon yo‘qotish bilan 214 operatsiya, 134 operatsiyada - 1000 ml dan ortiq, lekin 2001 ml dan kam, 79 bemorda intraoperativ qon yo‘qotish hajmi 2000 ml dan oshdi. 1000 ml gacha qon yo‘qotish bilan besh yillik omon qolish darajasi adyuvant kimyoterapiyasiz va adyuvant kimyoterapiya bilan mos ravishda 27,3% va 48,1% ni tashkil etdi, shuningdek jarrohlik davolash guruhida o‘n yillik omon qolish darajasi 27,3% kombinatsiyalangan davolash guruhida - 31,1%ni tashkil etdi, medianalar 24 va 60 oyga yetdi. Farq statistik ahamiyatga ega,  $p=0,0004$ . Qon yo‘qotish hajmi 1001-2000 ml bo‘lgan bemorlar guruhida kombinatsiyalangan davolash bilan omon qolish ko‘rsatkichida afzallik qayd etilmadi; 41,3% ga nisbatan 36,2% 5 yilgacha yashay olishdi, operatsiyadan keyingi kimyoterapiya qo‘llanilgan guruhda mediana yuqoriroq (35 oyga nisbatan 48 oy) . Farq statistik jihatdan sezilarli emas ( $p=0,71$ ).

#### 4.12-jadval

#### Qon yo‘qotish hajmiga va kimyoterapiya mavjudligiga qarab bemorlarning omon qolishi

Aralashuv turi, Kimyoterapiya mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi			Mediana
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	
KT** $\leq$ 1 L* gacha	44	83.6 $\pm$ 6.2	27.3 $\pm$ 9.5	27.3 $\pm$ 9.5	24.0
KT bilan $\leq$ 1 L gacha	128	99.0 $\pm$ 1.0	48.1 $\pm$ 6.8	31.1 $\pm$ 9.5	60.0
>1L $\leq$ 2L KT siz	23	86.1 $\pm$ 7.5	41.3 $\pm$ 11.9	-	35.0
>1L $\leq$ 2L KT bilan	67	100.0	36.2 $\pm$ 8.3	31.0 $\pm$ 8.6	48.0
>2 L KT siz	19	75.0 $\pm$ 10.8	6.3 $\pm$ 6.1	-	18.0
>2 L KT bilan	20	88.9 $\pm$ 7.4	21.2 $\pm$ 16.9	-	49.0
L* - litr, KT**-kimyoterapiya					

Aksincha, 2000 ml dan ortiq qon yo‘qotish bilan jigar rezeksiyasidan keyin yordamchi terapiya besh yillik omon qolish darajasi 1,2% ni tashkil etdi, o‘rtacha ko‘rsatkich 49 oyga etdi (mos ravishda 6,3% va 18 oyga nisbatan). Farqi sezilarli,  $p=0,0294$ .

#### **4.8. Tsitoreduktiv operatsiyalarda jarrohlik va kombinatsiyalangan davolanishning uzoq muddatli natijalari (palliativ, jigardan tashqari metastazlar bilan, mahalliy destruksiya usullaridan foydalangan holda)**

Biz radikal jarrohlik amaliyotini o‘tkaza olmagan (qayta operatsiya qilingan bemorlar tahlildan chiqarildi)46 bemorning omon qolish darajasini o‘rgandik, tadqiqot natijalari 4.13-jadvalda aks ettirilgan. Bunday bemorlarning prognozi juda noxush - birorta ham odam uch yilgacha yashay olmadi, ikki yillik omon qolish darajasi kimyoterapiyasiz guruhda 16,7%, operatsiyadan keyingi terapiya qo‘llanilgan guruhda 20,7% ni tashkil etdi. O‘rtacha umr ko‘rish mos ravishda 13 va 18 oyga yetdi, ya'ni zamonaviy dorilarni kimyoterapiya qo‘llash holatiga qaraganda kamroq (adabiyot ma'lumotlariga ko‘ra). Kombinatsiyalangan yoki jarrohlik - davolash turiga qarab statistik jihatdan muhim farq yo‘q ( $p = 0,41$ ).

#### **4.13-jadval**

#### **Noradikal operatsiyalardan keyingi omon qolish darajasi (46 bemor)**

Operatsiyadan keyingi kimyoterapiyaning mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi %da		Mediana, oylarda
		1 yillik	2 yillik	
Kimyoterapiyasiz	16	58.3±13.1	16.7±10.6	13.0
Kimyoterapiya bilan	30	75.7±8.9	20.7±12.1	18.0

Jigarning palliative rezeksiyasi yo‘g‘on ichak o‘smasi bilan og‘rigan bemorlarni davolashda tavsiya etilmaydi va faqatgina tor ko‘rsatmalar doirasida amalga oshirilishi kerak - masalan, parchalanadigan metastazlardagi yiringli o‘choq sanatsiyasi sifatida. Shuningdek, agar kelajakda "qolgan jarohatlarga jigar yoki o‘pkada metastazlarni olib tashlash yoki radiochastota ablatsiyasi kabi ta'sir qilish rejalashtirilgan bo‘lsa – ikki bosqichli aralashuvlarda ham palliative jarrohlik amaliyotini o‘tkazishga ruxsat beriladi.

Jigardagi metastazlarga qo‘shimcha ravishda jigardan tashqari (jigar bo‘shlig‘ining limfa tugunlari va Truncuscoeliacus tomirlari bo‘ylab, qorin parda, o‘pka va boshqa organlar bo‘ylab) o‘choqlari bo‘lgan bemorlarning prognozi ham juda noxush. Shu bilan birga, aniqlangan metastazlar to‘liq olib tashlangan taqdirda tsitoreduktiv operatsiyalarni amalga oshirish ijobiy natijalarga erishishga umid beradi (4.14-jadval). Ushbu guruhda (78 bemor) besh yillik omon qolish darajasi 8,6% ni tashkil qiladi. Jarrohlik bosqichidan keyin kimyoterapiya 53 bemorda amalga oshirildi va uzoq muddatli natijalarni yaxshilashga imkon berdi - uch yillik omon qolish darajasi 7,5% ga nisbatan 22,7%, besh yillik omon qolish darajasi 15,2% (kimyoterapiyasiz, hech kim 5 yil yashay olmadi), mediana 22 va 16 oy. Farq sezilarli ( $p=0,023$ ).

#### 4.14-jadval

#### Jigardan tashqari metastazlari bo‘lgan bemorlarning omon qolish darajasi

Davolash turi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi			Mediana, oylarda
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	
Jarrohlik	25	69.5±9.6	7.5±6.6	-	16.0
Kombinatsiyalangan	53	82.1±5.8	22.7±8.9	15.2±8.6	22.0
Kimyoterapiya mavjudligidan qat‘iy nazar	78	78.0±5.1	16.0±6.0	8.6±5.1	19.0

Katta tomirlar va kanallar yaqinidagi shikastlanishlarning "noqulay" joylashuvi yoki jigar rezeksiyasi amalga oshirilganda FRL 25% dan kam qolishi ehtimoli tufayli asossiz xavf-xatarsiz metastazektomiya qilishning iloji bo‘lmaganda, jigar rezeksiyasiga qo‘shimcha ravishda radiochastota termal ablatsiyasi va kriodestruktsiya qo‘llanildi. Profilaktik kimyoterapiyasiz bemorlar guruhida o‘rtacha omon qolish muddati bir yilga bormadi. Kombinatsiyalangan davolanishda uch va besh yillik omon qolish darajasi 52,4% va 26,2% ni tashkil etdi, mediana 48 oyga etdi. 4.15-jadvalda jigar rezeksiyasidan tashqari, ablatsiya usullari qo‘llanilgan jigarning izolyatsiyalangan shikastlanishlari bo‘lgan

bemorlarning jarrohlik (6 kishi) va kombinatsiyalangan davolash (14 kishi) natijalari ko'rsatilgan.

#### 4.15-jadval


### Kimyoterapiyaning mavjudligi va turiga ko'ra mahalliy destruksiya usullari (kriyoterapiya va / yoki RChA) yordamida operatsiya qilingan bemorlarning omon qolish darajasi

Kimyoterapiya mavjudligi	Bemorlar soni	Omon qolish darajasi			Mediana, oylarda
		1 yillik	3 yillik	5 yillik	
Kimyoterapiyasiz	6	50.0±20.4	*	-	9.0
Kimyoterapiya bilan	14	92.3±7.4	52.4±15.8	26.2±20.2	48.0
Jami	20	87.8±8.1	41.5±13.8	20.8±16.2	26.0

\*2yillik omon qolish ko'rsatkichi 16.7±15.2; 3 yillik omon qolish yo'q

#### 4.9. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning yashab ketishga ta'siri

Biz jigar rezeksiyasidan oldin kimyoterapiya olgan yo'g'on ichak o'smasining jigardaizolyatsiyalangan metastazlari mavjud oltmish nafar bemorlarni uzoq muddatli davolash natijalarini tahlil qildik (4.10-rasm).



4.10-rasm. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya mavjudligiga qarab omon qolish darajasi




Besh yillik omon qolish 39,8% ga nisbatan 33,2% ni tashkil etdi (neoadyuvant davolashsiz jigar rezeksiyasini o'tkazgan 248 nafar bemordan iborat guruh bilan solishtirganda), ikkala guruhdagi mediana 48 oyga yetdi,  $p = 0,17$ . Farqi sezilarli emas, nisbiy o'limxavfi 1,37 (95% II 0,85 - 2,43)ni tashkil qildi.

Operatsiyadan oldin davolangan bemorlar guruhida 42 bemor jigar rezeksiyasidan so'ng adyuvant kimyoterapiya oldi. Aktorial besh yillik omon qolish darajasi 49,1%ni, meiana 48 oyni tashkil qildi. Neoadyuvant davolashsiz (179 bemor) faqat yordamchi kimyoterapiya bilan umumiy besh yillik omon qolish darajasi 43,8% ni tashkil etdi, o'rtacha umr ko'rish 54 oyga etdi, farq sezilarli emas,  $p = 0,27$ . Nisbiy o'limxavfi 0,71 (95% II 0,33 -1,36).

Operatsiyadan oldin kimyoterapiya olgan 18 nafar bemorga adyuvant davolashyozilmadi; bu guruhda besh yillik omon qolish yo'q, mediana esa 22 oy bo'ldi. Operatsiyadan oldingi va operatsiyadan keyingi kimyoterapiya (69 bemor) mavjud bo'lmaganda besh yillik omon qolish darajasi 27,5%, mediana 26 oyni tashkil etdi. Farq statistik ahamiyatga ega emas,  $p=0,69$ . Nisbiy o'limning xavfi 1,145 (95% II 0,57-3,37).

Jigar rezeksiyasidan oldin 36 bemorda zamonaviy dorilar (oksaliplatin, irinotekan, raltitreksed, target preparatlar) yordamida kimyoterapiya o'tkazildi, o'rtacha umr ko'rish 52 oyni tashkil etdi (5FU/LV qo'llash bilan - 24 oy, farq sezilarli emas,  $p. = 0,24$ ), nisbiy xavf 0,61 (95% II 0,24 - 1,43).

Bundan tashqari, operatsiyadan oldingi kimyoterapiyaning jigarda yo'g'on ichak o'smasi metastazlari bo'lgan bemorlarni uzoq muddatli kompleks davolash natijalariga ta'siri tahlil qilindi. Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya samaradorligi RECIST mezonlari bo'yicha baholandi, 31 bemorda progressivlashuv qayd etildi, 15 holatda barqarorlashuv, 14 bemorda obyektiv javobga erishildi, ushbu bemorlarning birida patomorfologik tekshiruv bilan to'liq regressiya tasdiqlandi (4.11-rasm). Bemorlarning birinchi guruhida mediana 24 oyga, ikkinchisida - 48 oyga, ob'ektiv javob bilan - 63 oyga yetdi, ammo farq statistik darajagayetib bormadi (progressivlashuvva tasdiqlangan obyektiv javob qayd etilgan guruhlarda uzoq muddatli natijalarni solishtirganda  $p = 0,26$ ).



**4.11-rasm.** Operatsiyadan oldingi kimyoterapiya samaradorligiga ko‘ra omon qolish darajasi


Shunday qilib, bizning bo‘limimizdan olingan materiallarni tahlil qilgan holda, operatsiyadan oldingi davolanish jigardayo‘g‘on ichak o‘smasi metastazlari bo‘lgan bemorlarni davolashning uzoq muddatli natijalarini yaxshilamagan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Zamonaviy dori vositalaridan foydalanish (ftorouratsil bilan solishtirganda), shuningdek, operatsiyadan oldingi kimyoterapiya samaradorligi jigar rezeksiyasidan keyingi omon qolishga sezilarli ta'sir ko‘rsatmadi. Biroq, kuzatuvlar soni kam bo‘lganligi sababli, metastatik jigar kasalligi bo‘lgan yo‘g‘on ichak o‘smasi bilan og‘rigan bemorlarni birgalikda davolashda sanab o‘tilgan parametrlarga qarab operatsiyadan oldingi qo‘llaniladigan kimyoterapiyaning rolini yanada chuqurroq o‘rganish zarur.

#### 4.10 Klinik misol

Bemor G, 62 yosh.

Tashxis: To‘g‘ri ichak saratoni T3M1MO, to‘g‘ri ichakoldrezeksiyadan keyingi holat, jigar metastazlari.

Anamnez: 05.11.04y da saraton kasalligi doirasidato'g'ri ichakning oldrezeksiyasi o'tkazilgan. Gistologik xulosa: ichak devorining barcha qatlamlari invaziyasi bilan o'rtacha differensiallashgan adenokarsinoma, olib tashlangan 6 ta limfa tugunlarining 1 tasida metastaz. Keyingi tekshiruvda jigarining markaziy qismlarida kasallik o'chog'i aniqlangan.




**4.12-rasm. Bemor G. Jigarining markaziy qismlarida to'g'ri ichak o'smasi metastazlari. Rezeksiyaning taxmin qilinayotgan hajmi - kengaytirilgan o'ng gemigepatektomiyadan iborat.19% FRL(I-II-III segmentlari).Yuqori jigar yetishmovchiligi xavfi mavjud.**

Qo'shimcha tekshiruvda (qorin bo'shlig'ining ultratovush tekshiruvi va kompyuter tomografiyasida) jigarining o'ng bo'lagida va chap tomon to'rtinchi segmentida skrining bilan 11,5 sm gacha bo'lgan o'sma konglomerati mavjud. 31.10.07da Jigardagishikastlanishning№ 07/18035ponksiyon biopsiyasi bilan - adenokarsinoma metastazi (yo'g'on ichak o'smasi metastazi).

O'simta markerlari: PEA 51,68 ng / ml, CA 19-9 - 17,65 U / ml. O'pka rentgenogrammasi, kolonoskopiya - o'sma patologiyasisiz. Bemorga kengaytirilgan o'ng tomonlama gemigepatektomiya shaklida jigar rezeksiyasi rejalashtirilgan (4.12-rasm). Chap kaval bo'lagining sezilarsiz kattaligi tufayli (KT volyumentriyadan foydalangan holda KT angiografiyasiga ko'ra 19%), jigar

chap bo‘lagi parenximasini gipertrofiya qilish maqsadida portal venasining o‘ng shoxiga embolizatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.




**4.13-rasm.** O‘ng portal vena embolizatsiyasining yakuniy bosqichi, asosiy magistral kaltaligitufayli segmentar shoxlar tanlab embolizatsiya qilindi (A-rasm). PVE dan bir hafta o‘tgach, qorin bo‘shlig‘ining tahlil rentgenografiyasi. Ko‘rinib turibdiki, rentgenokonstrast embolizat portal venaning o‘ng shoxi tizimida turibdi (B-rasm).

01.11.07y da angiografik tadqiqot o‘tkazildi, uning davomida jigarning markaziy qismlarida o‘rtacha darajada vaskulyarizatsiya 11x13 sm bo‘lgan o‘sma konglomerati aniqlandi. Tseliakografiya va qaytish portografiyasidan so‘ng o‘ng portal venasining teri orqali transhepatik ponksiyoni o‘tkazildi va bevosita portografiya amalga oshirildi. O‘ng shoxchanning kalta asosiy trunkasi tufayli uning segmentar shoxlari tanlab embolizatsiya qilingan (4.13 A-rasm).


6 kundan so‘ng jigarning ultratovush tekshiruvi portal venaning DKi bilan o‘tkazildi, bunda portal venaning o‘ng tarmog‘i tizimi orqali qon oqimi yo‘q edi. Qorin bo‘shlig‘ining R- tahlil rasmida (4.13 B-rasm) ko‘rinib turibdiki, embolizat o‘ng portal oqimdamutanosisib tavishtataqsimlangan.

5 haftadan so‘ng qorin bo‘shlig‘i organlarining KT angiografiyasi va ultratovushli KT o‘tkazildi. KT volyometriyasida Future remnant liver 31% ni tashkil etdi. Portal venaning o‘ng tarmog‘i tizimi orqali qon oqimi yo‘q (DK va KT angiografiyasi bilan ultratovushli KT ma‘lumotlari bo‘yicha). Jigarning I-II-III segmentlarida patologiya o‘cjoqlari aniqlanmagan (4.14-rasm).



**4.14-rasm.** Qorin bo'shlig'i a'zolarining KT angiografiyasi portal venaning o'ng shoxchasi embolizatsiyasidan 5 hafta o'tgach.

